

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA
MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI

**PEDAGOGIKA-PSIXOLOGIYA FAKULTETI
MUSIQA KAFEDRASI**

“Himoyaga tavsiya etilsin”

Pedagogika-psixologiya fakulteti

dekani _____ dots. T. Rasulov

“ _____ ” _____ 2011 yil

5141000- “Musiqiy ta’lim” yo‘nalishi talabasi TO‘YCHIYEVA ZUMRADNING

bakalavr darajasini olish uchun



**“Musiqqa madaniyati darslarida Qashqadaryo-Surxondaryo musiqa ijrochiligini
o‘rganish” mavzusidagi**

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar: _____ prof. Abdikarimov.M.

“ _____ ” _____ 2011 yil

QARSHI-2011



MUNDARIJA:

KIRISH.....3-10

I.BOB. QASHQADARYO-SURXONDARYO MADANIYATI VA SAN'ATI

I.1. Ikki voha madaniyati va san'ati haqida11- 18

I.2. Madaniyat va san'at kollejlari19-20

I.3. Qarshi Davlat universiteti musiqa kafedrası21-22

II.BOB. SURXONDARYO-QASHQADARYO MUSIQA USLUBLARI HAQIDA TUSHUNCHA

II.1. Musiqiy uslublar23-27

II.2. Surxondaryo-Qashqadaryo an'anaviy musiqa cholg'ulari28-32

II.3. Mehnat, dehqonchilik va chorvachilik qo'shiqlari33-67

III.BOB. SURXONDARYO-QASHQADARYO DOSTONCHILIK MAKTABI

III.1. Dostonchilik uslublari68-69

III.2. Folklor etnografik ansambllar70-75



III.3. Baxshichilik ijro yo'llari76-78

III.4. Bastakorlik ijodi79-87

XULOSA88-92

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati93

Нота ёзуви ва фотосуратлар94-105



KIRISH

Mavzuning dolzarbligi: Bizning bitiruv malakaviy ishimiz mavzusidagi “Musika madaniyati darslarida Qashqadaryo va Surxondaryo musiqa ijrochiligini o’rganish” yuksak manaviyat milliy musiqa merosimizning o’rganishiga bag’ishlangan. Shunga ko’ra ta’lim jarayonida bu ijrochilik yo’lini o’rganish hamnazariy ham amaliy ahamiyatga ega. Yosh avlodnihar tomonlama barkamol, komil inson bo’lib shakillanishida milliy musiqamizni o’rganish u orqali yoshlarda milliy g’urur his tuyg’ularni shakillantirish musiqa pedagogika fanining dolzarb vazifalaridan biridir. Shuning uchun biz ilmiy xulosalarga asoslangan holda musiqa madaniyati darslarida Qashqadaryo va Surxondaryo ijrochiligini o’rganish mavzusini dolzarb mavzu sifatida tadqiq etishga jazm etdik.

Bitiruv ishining maqsadi: Yosh avlodni milliy musiqa merosimizga vorislik qila oladigan , umum boshqaruv musiqa boyligini idrok eta oladigan madaniyatli inson darajasida voyaga yetkazishni nazarda tutgan holda, maktabda Qashqadaryo va Surxondaryo musiqa ijrochiligini o’rganishni , qolaversa milliy musiqa klassik ashulalarni o’quvchilarga o’rgatishni maslahat berish. Darslardan tashqari to’garak tashkil qilish.

Bitiruv ishining vazifalari: DTS va yangi o’quv dasturi asosida o’quvchi avvalo Qashqadaryo va Surxondaryo musiqa ijrochiligini o’rganish haqida tushuncha berish kerak, o’quvchilarning qobilyatiga yoshlik xususiyatiga qarab ashulla tanlay olish lozim.

Tadqiqotning obykti: Umum ta’lim maktablarida 7-sinfda musiqa madaniyati fanining o’qitilishi va to’garak mashg’ulotlari jarayoni.



Tadqiqotning predmeti: Umum ta’lim maktablarida musiqa madaniyati darslarida o’quvchilarning milliy musiqa merosimiz bo’lgan badiiy ehtiyojlarni qondirish hamda qiziqishlarini oshirish.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi: umum ta’lim maktablari musiqa madaniyati darslarini Qashqadaryo va Surxondaryo musiqa janri asosida tashkil etishni takomillashtirish va uni amallashtirish.

Tadqiqotning qmaliy ahamiyati: Umum ta’lim maktablarida musiqa madaniyati darslari va to’garak mashg’ulotlarini olib borishda Qashqadaryo va Surxondaryo vohalari yo’nalishdagi asarlarini o’rganishning keng va samarali qo’llash mumkin.

Ilmiy-tadqiqot metodlari

1. DTS va o’quv dasturi hamda Qashqadaryo va Surxondaryo musiqa ijrochiligini o’rganishda oid adabiyotlarini tahlil qilish.
2. Kuzatish
3. Suhbat
4. Tajribani tahlil etish va umumlashtirish.



“Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqorolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi” O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo‘shma majlisidagi maruzasi “Xalq so‘zi” gazetasining 2010 yil 13 noyabr №220 (5135) shanba sonida berilgan bo‘lib, Prezidentimiz o‘z so‘zlarini 2010 yilni yakunlab, vatanimiz mustaqilligining 20 yilligi nishonlanadigan yangi 2011 yil ostonasida turganligimiz haqida so‘z bo‘lib, o‘tgan davr mobaynida hayotimiz, mamlakatimiz qiyofasi o‘zgarib borayotganligi yutuq va fuqorolik jamiyati barpo etish yo‘lida qanday sur‘atlar bilan borayotganligimizni baholash lozimligi haqida to‘xtalib o‘tadilar.

Oldimizda turgan uzoq muddatli strategik maqsadlar rivojlangan demokratik davlatlar qatoriga kirish, iqtisodiyotimizning barqaror o‘rinishini ta‘minlash, jahon jamiyatida munosib o‘rin egallash borasidagi sayi-harakatlarimizga bugungi nuqtai nazardan baho berish.

O‘zbekiston 1991 yilda o‘z mustaqilligini qo‘lga kiritayotgan so‘ng “O‘zbek moduli” deb nom olgan taraqqiyot yo‘lini tanlab oldi. Bu ishlab chiqilgan va bugungi kunda hayotga tadbiiq etilayotgan ushbu modulning ma‘no-mazmuni davlat qurilishi va Kanstitutsiyaviy tuzumini tubdan o‘zgartirish va yangilash, iqtisodiyotni mafkuradan holi etish, uning siyosatdan ustunligini ta‘minlash, davlatning miqyosidan o‘tkazish O‘zbekistonda mahalliy o‘zini-o‘zi boshqarishning noyob shakli bo‘lgan mahalla tizimini shakillantirish masalalariga katta e‘tibor berish.


Ikki palatali milliy parlamentni tashkil etish uchun 2007 yil 27 yanvarda o‘tkazilgan referendum, qonun chiqaruvchi hokimiyatni yubdan isloh qilish xalq deputatlari mahalliy kengashlari vakillaridan tashkil topgan yuqori palata senatining hududlar manfaatlarini ifoda etish , hamda Konstitutsiyada belgilab berilgan Prezidentlik va Bosh vazir vakolatlari haqida ham so‘z yuritiladi.

Toshkentda 12 noyabr kuni O‘zbekiston Respublikasi oliy majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo‘shma majlislari bo‘lib o‘tdi. Majlisda O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti va “Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqorolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi” mavzusida maruza qildi.

Majlislar zalida vazirlar mahkamasi a‘zolari, Respublika tashkilotlari, xalqaro tashkilot rahbarlari, mamlakatimiz va xorijiy ommaviy axborot vositalari muxbirlar ishtirok etdi.

Majlisni O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Spekri D. Toshmuhammedova boshqardi.

Davlatimiz rahbari o‘z ma‘ruzasida davlat ahamiyatiga muhim vazifalarni hal etishda davlat hokimiyati tarmoqlari, xususan parlamentni yanada rivojlantirish va mustahkamlash, siyosiy partiyalarni rolini oshirish, mamlakatimiz sud huquq tizimi, saylov qonunchiligini



takomillashtirish fuqorolik jamiyati institutlarini, ommaviy axborot vositalarini shuningdek iqtisodiyotga qaratilgan bir qator qonunchilik tashhabbuslariga alohida e'tibor qaratilgan.

“Bugun biz tarixiy bir davrda – xalqimiz, xalqimiz o'z oldiga ezgu va ulug' maqsadlar qo'yib, tinch osoyishta hayot kechirayotgan avvalambor o'z kuch va imkoniyatlariga tayanib demokratik davlat, fuqorolik jamiyati qurish yo'lida ulkan natijalarni qo'lga kiritayotgan bir zamonda yashamoqdamiz”.

(Islom Karimov Yuksak manaviyat yengilmas kuch. Toshkent "Ma'naviyat" 2008 yil 2.s)

“Mamlakatimizda barqaror va samarali iqtisodiyotni shakillantirish borasida amalga oshirilib kelayotgan islohotlar bugungi kunda o'zining natijalarini namoyon etmoqda. Jumladan qisqa vaqt ichida iqtisodiyotda chuqur tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish, aholi daromadlarini o'sishini ta'minlash samarali tashqi savdo va investitsiya jarayonlarini kuchaytirish qishloq xo'jaligini isloh qilish, kichik beznis va xususiy tadbirkorlik sohasini barqaror rivijlantirish, bank-mliya tizimi faoliyatini mustahkamlashda ahamiyatli yutuqlar qo'lga kiritildi.”


(O'zbekiston Respublikasi prezidenti Islom Karimovning “Jahon moliyaviy- iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari” nomli asri bo'yicha o'quv qo'llanma “Iqtisodiyot nashriyoti” 2009 yil 5 s)

“Jahon miqyosida kechayotgan glaballashuv jarayoni XX asrning oxiri XXI asrning boshlarida butun insoniyat yer yuzidagi barcha xalqlar va millatlar taraqqiyoti uchun, ayniqsa yosh avlod uchun misli ko'rilmagan imkoniyatlar yaratilmoqda”(Islom Karimov Eng asosiy mezon hayot haqiqatlarini aks ettirish. Toshken 2009 yil 3 s)

Prezidentimiz I.A.Karimov Qashqadaryoga kelgan safarlarida doimo qadimiy vohada yashab o'tgan aziz avliyolar, tabarruk zodlar, “Naxshabiy”, ”Nasafiy” taxalluslari bilan shuhrat qozongan allomalar hamda sohibqiron Amur Temurdek buyuk zodlar yetishib chiqqanligini alohida g'urur bilan takidlaydilar/ Yurtboshimizning ko'rsatmalari bilan ulug' ajdodlarimizning tarixiy qadriyatlarimiz va ma'naviyatimiz xazinasiga qo'shgan boy merosini chuqur ilmiy tadqiq etish, targ'ib va tashviq qilish, muqaddas qadamjolarni obodonlashtirish, me'moriy obidalarni ta'mirlab ko'z qorachig'idek asrash va kelgusi avlodlarga bekamu ko'st yetkazish sohasida keng qamrovli ishlar amalga oshirilmoqda.

BMT ning YuNESKO tashkiloti Bosh konfrensiyasi 32 – sessiyasida Qarshi shahrining 2700 tilligini nishonlash bo'yicha qaror qabul qilinganligi ”O'zbekiston durdonasi” deb ataladigan bu shaharning ko'p asrlik qadimiy boy tarixini to'la manoda e'tirof etilganligining yaqqol isbotidir.

Respublika Vazirlar Mahkamasining 2004 yil 29 sentabridagi ”Qarshi shahrining 2700 yilligini nishonlashga tayyorgarlik ko'rish to'g'risida” hamda O'zbekiston Respublikasi



Prezidentining 2005 yil 27 iyundagi "Qarshi shahrining 2700 yilligini nishonlashga qo'shicha chora tadbirlar to'g'risidagi" qarorlarga asosan shahrimizda keng ko'lamda bunyodkorlik ishlari amalga oshirilmoqda.



Yerqo'rg'on, Shulluktepa, Zahoki, Moron singari ko'hna harobalar o'z bag'rida ne-ne o'tmishdan siru sinoatlarni saqlab kelmoqda. Moziy bilan bo'ylashgan o'tmishda Bola, Nashebola, Naqshab, Nasaf deb atalgan bugungi Qarshi shahri mamlakatimiz siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy hayotida tutgan salohiyatli o'rni va boy tarixi bilan alohida ajralib turadi.

Buyuk Ipak yo'li chorrahasida joylashgan hamda sharq va g'arb mamalakatlariga yirik savdo karvon yo'li o'tgan bu azim shahar boy o'tmish tarixiga ega bo'lib, jahon sivilizatsiyasiga qo'shgan hissasi bilan salmoqli o'rinda turadi. Respublika Vazirlar Mahkamasi va Prezidenti qarorlari keng ko'lamli va hayrli ishlarga yo'l ochdi, yanada ko'tarinkilik bag'ishladi Qashqadaryo viloyati hokimi ham ushbu masala bo'yicha maxsus qaror qabul qilinganidan so'ng shahardagi me'moriy obidalarni 2005-2006 yillarda to'liq ta'mirlash, qurilish, obodonchilik yumushlarini tezkor su'ratlarda amalga oshirish, yubiliyga tayyorgarlik ko'rish va o'tkazish ayniqsa qizg'in tus oldi.

Qashqadaryoning joylashgan muhiti asosan juda qadimiy madaniyat, san'at, adabiyot, musiqa san'ati umuman ilmu fanning barcha sohalari rivojlangan qadimiy shaharlarga chegaradosh. Marv (Mari), Kesh (Shahrisabz), Buhoro, Samarqand, Termiz, Xiva kabi qadimiy tarixga ega shaharlarning ba'zilar esa Qashqadaryo hududidagi Nasaf (Qarshi) va yuqoridagi nomlari zokr etilgan shaharlararo iqtisodiy va madaniy aloqalar bo'lgan. Qashqadaryo hududiga yaqin joylashgan Marv shahrida sharq musiqa madaniyati rivojining asoschisi, yetuk sozonda, xonanda, bastakor Barbod Marzaviyning musiqa ilmining rivojiga katta hissa qo'shgan. Keyinchalik Eron shohi Xusrav Parvez saroyida faoliyat ko'rsatgan tarixiy shaxs hisoblanadi.

Shuningdek, Nasaf (Qarshi) Shahriga yaqin Kesh (Shahrisabz) ham qadimiy shaharlardan hisoblanib yetuk tarixiy bilan bog'liqdir. Ma'lumki, Hind musiqa madaniyatining asoschisi musiqa, adabiyot va boshqa sohalarda ijod etgan buyuk olim Amir Xusrav Dehlaviyning otabobolari ham kesh shahridan ekanligi ma'lum. Buhoro va Samarqand shahridagi madaniyat va san'at rivoji nafaqat shaharlar, balki O'zbekiston'rat Osiyo madaniyati rivojining asosini tashkil etadi.

Demak, shu asnoda hozirgi Qashqadaryo madaniyati va sa'ati o'ziga xos talqinda rivojlanib kelgan. Hozirgi kunda esa tarixiy, madaniy an'analar davom ettirib, qadimiy an'analarni rivojlantirib, bu sohada turli xil kasb egalari faoliyat ko'rsatib kelishmoqda. Madaniyat va san'atning o'ziga xos uslubda taraqqiy etib borishiga ko'pgina sohalari qatori ilmni adabiyot, teatr sohasi bilan bir-biriga bog'liq holdagi ijodiy faoliyati va bu sohalarda shoir va



shoirlar, musavvirlar, xalq ustalari, xalq baxshilari, milliy musiqa cholg'ulari mutrib-sozandalar, musiqashunoslar o'zaro hamkorlikda faoliyat ko'rsatishmoqdalar.


Yil davomida bo'ladigan to'y marosimlar, sayillar, hosil bayramlari, muchal to'yi, Navro'z bayrami va boshqa turli xil marosimlarda musiqa ijrochilariga xos barcha turdagi ijrolar, shu bilan birga, madaniyat va san'at sohasiga tegishli barcha ijro namunalari namoyish etiladi. Shu bois bu qadimiy an'analar avloddan-avlodga o'tib, xalq orasidagi ko'pgina xonandalarda qadimdan tanbur, dutor, chanqobiz, nay, surnay, doira, do'mbira kabi musiqa cholg'ulari bo'lib, bu esa musiqa ijrochiligini avloddan-avlodga o'tib kelayotganligidan dalolat beradi. Bu borada Abdulla Qodiriy va Mahmud Savdoiylar (tanbur), A'zam Rajabov, Odil Poyonov (g'ijjak), Tursun Jumaev (surnay), Salom Hofiz (doira jo'rligida qo'shiq) va boshqalarning uylarida saqlanayotgan ba'zi bir musiqa cholg'ulari va ularning uzoq yillar davomida xalq orasidagi va ko'pgina marosimlardagi musiqa ijrolari misol bo'la oladi.

Qashqadaryodagi teatr jamolaridan Mulla To'ychi Toshmuhammedov, Eski Masjid, Shahrisabz xalq teatr jamoalari musiqa asarlarini o'rganish va uni targ'ib qilishda ijobiy ishlarni amalga oshirib bormoqdalar. Qarshi shahridagi teatrdan dastlab 1930 yillarda Abdulla Qodiriy, Tanburiy, 1941-1942 yillarda O'zbekiston xalq artisti Turg'un Alimatov, Sur'at Po'latov, kompozitor Ibrohim Hamroyev faoliyat ko'rsatgan. Kiyingi yillarda Hayit aka Mustafokulov, Sharif Qobilov, Mihiddin Majidov rahbarligida yetuk aktiyorlar, mustrob-sozandalar, hofiz-xonandalalar, musavvirlar, rejissorlar, umuman bu yetuk ustozlar Mamatqul Rajabov, Rajab Shoyqulov, Bahrom Komolov, A'zam Rajabov, Kamoljon Rahimjonov, Tojiddin Murodov va boshqalar faoliyat ko'rsatishgan bo'lsa hozirgi kunda ham bu an'analar davom etmoqda.

Eski masjid teatri jamoasi ham O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi Is'hoq To'raev rahbarligida xushovoz xonanda O'zbekiston xizmat ko'rsatgan artist Oygul Xalilova hamda teatr jamoasi bilan hamkorlikda dasturlarni tayyorlab viloyat, Respublika, O'rta Osiyo, umumjahon musiqiy anjumanlarida namoyish etmoqdalar.

Musiqa ilmining amaliy va nazariy masalalariga tegishli bilimlar Qarshi davlat universitetidagi musiqa kafedralarida san'at va madaniyat kollejlari va musiqa maskanlarida tahsil olgan shogirdlar musiqa madaniyati rivojiga o'z hissalarini qo'shmoqda. Yildan-yilga Qashqadaryo musiqa madaniyati sohasida O'zbekiston Davlat Konservatoriyasi, Madaniyat va teatr-rassomchilik instituti va boshqa musiqa maskanlarida tahsil olgan oliy toifali sozanda va xonandalarning soni ko'paymoqda.



Bastakor Rahmadjon Tursunov tomonidan Fuzuliy she'riga bastalangan "Gamzasin sevding ko'ngil..." deb boshlanuvchi ashulasi yetuk hofiz xonanda O'zbekiston xizmat ko'rsatgan artist Tojiddin Murodov tomonidan ustodona ijro etilgan bo'lib, bastakorlik an'alarini davom ettirgan, Islom Rajabov, Ravshan Ziyodov, Baxodir Maxsunov, Murodilla



Abdukarimov va boshqalarning Navoiy, Abdulla Oripov, Normurod Narzullayev va boshqalar tomonidan yaratilgan she'rlarining bastalangan asarlari viloyat, Respublikasi miqyosida o'tkazilgan qo'shiq tanlovlarida ijro etilib, yuqori o'rinlarga sazovor bo'lmoqda.

Shu bilan birga dotsentlar Sami Aziz o'g'lining "Garmoniya", Murodilla Abdukarimovning "Cholg'ushunoslik" darsliklari, "Tanbur navolari" o'quv qo'llanmasi, Abdujabbor Rahmonqulovning "Istiqlolni kuylayman" o'quv qo'llanmalari o'rta va oliy musiqa dargohlarida qo'llanilmoqda.

Hozirgi kunda ikkita kopmozitor, bitta musiqashunos san'atshunoslik fanlari nomzodi, bitta xalq hofizi, beshdan ortiq O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat hodimi, uchta O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi, uchta dotsent, o'nlab O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan va xalq artistlari, xalq baxshilari Qashqadaryo musiqa madaniyati amaliy va nazariy jihatdan yanada boyib takkomillashib borishiga o'z hissalarini qo'shmoqdalar.



I BOB. QASHQADARYO VA SURXONDARYO MADANIYATI VA SAN'ATI

I.1. Ikki voha madaniyati va san'ati

Qashqadaryo haqida fikr yuritilganda albatta hozirgi Qashqadaryoning jiyilashgan muhiti asosan juda ham qadimiy madaniyat va san'at tarixiga ega chunki Qashqadaryo sarhadi qadimiy madaniyat va san'at adabiyot, musiqa ijrochiligi rivojlangan qadimiy shaharlarga yaqin joylashgan, ba'zi shaharlari esa Qashqadaryo hududida joylashgan.

Masalan: Boxoro, Samarqand, Xiva, Termiz, Marv (Mari) shaharlariga yaqin joylashgan bo'lsa Nasaf (Naqshab), Kesh (Shahrisabz) shaharlariga esa juda ham qadimiy shaharlar hozirgi Qashqadaryo hududidagi Nasaf va Kesh shaharlararo yuqorida zikr etilgan shaharlararo madaniy va iqtisodiy aloqalar ham bo'lgan.


Qashqadaryo hududida yaqin joylashgan Marv (Mari) shahrida sharq musiqa madaniyatining asoschisi Barbad Markaziy yashab ijod etgan. Barbodning asl nomi Failobod bo'lib, ud musiqa cholg'usining mihr ijrochisi bo'ladi. Shu bois unga ud musiqa cholg'usining ikkinchi nomi Barbod atmasi berilgan. Barbod Marvaziyning Eron shohi Xusrav Parvezning saroyida yashab ijod etib, podhohga atab "Xusrovoniy" nomli asarlar yozgan. Xudda shunday Buxoro, Samarqand shaharlarining madaniyati va san'ati rivoji nafaqar unga yaqin shaharlar balki O'rta Osiyo mamlakatlari va Sharq mamlakatlari madaniyati san'ati rivojiga asos hisoblangan. Albatta Buxoro, Samarqand, Xiva (Xorazm) shaharlarining madaniy hayoti Qashqadaryo madaniyati rivojiga xos ijobiy ta'sir ko'rsatgan.

Shuningdek Nasaf (Qarshi) shahriga yaqin Kesh (Shahrisabz) shaharlari ham qadimiy shaharlardan hisoblanib, yetuk tarixiy shaharlarning nimalari ushbu shahar tarixi bilan bog'liq. Ma'lumki Amir Xusrav Dehlaviy Hind madaniyati va san'ati adabiyotining asoschisi hisoblanadi va uning ota-bobolari Kesh shahridan ekanligi haqida ma'lumot bergan. Tarixiy manbalardan Nasaf shahrida Nasaf nomi juda ko'p allomalar yashab ijod etgan. Bundan tashqari juda ko'p tarixiy shaharlarning ijodiy faoliyati hozirgi Qashqadaryo tarixi bilan bog'liq.

Hozirgi kunda ham Qashqadaryo vohasi o'zining madaniyati san'ati musiqa madaniyati o'ziga xos asnoda rivojlanib bormoqda va O'zbekiston san'ati madaniyati rivoji sohasida o'z hissasini qo'shib kelmoqda.

II. 1. Qashqadaryo san'ati va madaniyati o'ziga xos asnoda rivojlanib kelmoqdadir.

Demak shu amalda hozirgi Qashqadaryo madaniyati va san'ati tarixiy milliy ananalari davomettirgan holda rivojlanib boyib takomillashib yangi-yangi muvofaqqiyatlarga erishib qadimiy ananalar o'rganilib, bu sohada turli hil kasb egalari faoliyat ko'rsatib kelmoqda. Madaniyat va san'atning uziga xos uslubda taraqqiy etib kelishida ko'pgina sohalar qatori musiqa ilmi va adabiyot san'ati, madaniyati san'ati teatr sohasi bilan bir-biriga bog'liq ijodiy faoliyati va bu sohalarda shoir va shoirlar musavverlar, akteyorlar xofiz-xonandalar mutbir-



sozandalar, xalq ustalari,xalq baxshilari, bastakorlar musiqa shunoslar o'zaro hamkorlik faoliyat ko'rsatib kelmoqdalar.

Albatta ko'pgina shoirlarimizning tarixiy manbalarida zikr etilgan bo'lib ularning ko'plarining nomlari Nasaf shahri bilan bog'liq bo'lib ularning ko'plari Nasaf shahrida tug'ilgan ba'zilar esa ota-bobolari Nasaf shahrida bo'lgan.

Islom universitetining olimi Durbek Rahimjonovning takidlashicha Movaraunnahrda yashab ijod etgan Abul Haq al-Nasafiy to'g'risida quyidagicha ma'lumot beradi Abul Haq al-Nasafiy asli qarshilik olim bo'lib Samarqandda yashab ijod etgan. U taxminan 1068-1070 yillarda Qarshi shaharida 1142 yillarda vafot etgan, bilim ahli ya'ni talabalar uchun "Aqoida Nasafiy" asarini ikkinchi asari "Samarqand ulamolari bo'yicha bir shirinlik" kitobi 3000 dan ortiq ulamolar haqida madaniy'lumotlar berib 1200 ga yaqini haqida to'liq ma'lumotlar berilgan 300 tasi 8-12 asrlarda yashagan. Ularning 1000 tasi samarqandlik 600 tasi buxorolik, 400 tasi nasaflik olimlardir.

Yanada bir kitob 1991 yilda Dashanbiydagi "Donishiy" nashriyotida chop etilgan, Saido Nasafiy "Quliyoti asar" kitobida Mirobid Saido Nasafiy haqida ma'lumot berilgan. U 1638 yillarda tug'ilib 1708 yillarda vafot etgan. Bu kitobda ma'lumot berishlaricha u turli xil she'riyat asoslari turidan qasida, muxammas, masnaviy, g'azal, ruboiy shakillaridagi asarlar yozib ijod qilgan. Mirobid Saido Nasafiy "Bahoriyat" (Bahor qo'shiqlari), "Shaxroshud"(Shahar vorisi) nomli kitoblar muallifidir. Shoir bu kitobda turli xil kitoblar tukumlarida ijod qilib, bu kiobning umumiy hajmi 8422 baytni tashkil etadi.

Hozirgi kunda bu an'analari davom ettirilib adabiyot shariyat sohasida ijod qilayotgan adabiyotshunoslar olimlar shoir va shoirlarning ijodiy faoliyati tahsinga loyiqdir.

Buyuk zabardast shoir O'zbekiston yozuvchilar saroyining raisi, O'zbekiston xalq Qahramoni Abdulla Oripov shoirlar Jumaniyoz Jabborov, Normurod Narzullayev, Amir Xudoyberdi, Samar Nurov, Islom Senchanushov, Sharofat Ashurova va boshqalarning ijodi misol bo'la oladi. Bu shoirlarning o'nlab she'rlariga musiqa bastalanib o'zbek musiqa ijrochiligida ijro etilmoqda.

Keyingi yillarda Qashqadaryo san'ati va madaniyati yuksak darajaga ko'tarilib madaniyat va san'at sohasiga tegishli ta'lim dargohlarida mashg'ulotlar olib borilmoqda ayniqsa shoirlar, musavvir, rejissorlar, matrub-sozandalar, hofiz-xonandalar, aktiyorlar, musiqashunoslar bastakorlar Qashqadaryo va Toshkent va boshqa shaharlarga o'rta va oliy malakali dargohlarda tahsil olgan mutaxassislar Qashqadaryoda mavjud musiqa maskanlari.



II.2. Qashqadaryo teatr jamoasi hozirgi kunda Qashqadaryo Mullato'ychi Toshmuhammedov nomli musiqa va drama komediya teatri Shahrisabzga "Qori liroj" nomidagi xalq teatri, Eski Masjid teatri va boshqa teatr jamoalari ijodiy faoliyati albatta turli xil

madaniyat, san'at, adabiyot sohasida faoliyat ko'tsatib mutaxasislarning ijodiy faoliyati maxsus masalan teatrida yozuvchining yozgan drama va musiqali drama asari shoirlar va ular yozgan she'rlar teatrni bezovchi musavvirlar musiqada dramalar usha musiqa bastalaydigan kompozitorlar musiqiy daralar cholg'u yo'li ijrochilarini ijro etuvchi mustirib-sozandalar musiqiy asarlarni ashula yo'li ijrolarini ijro etuvchi xofiz xonandalar va musiqiy jamoalarga rahbarlik qiluvchi drijorlar rolini ijro qiluvchi aktyor va aktrisarlar va ularga raxbarlik qiluvchi rejissorlar kastyumyor ya'ni teatr jamoasini kiyim-kechak bilan, ta'minlovchi shaxs rekvizitor-spektakllarga kerakli turli xil buyumlar bilan ta'minlovchi shaxs, yorituvchi ya'ni sahnani teatrdagi soxalarni yorituvchi shaxs va boshqa mutaxasislarning birgalikdagi, xamkorlikdagi shu faoliyati tushiniladi.

Qashqadaryo dastlabki teatr 1928 yillarda tashkil etiladi. Dastlab milliy ansambl tashkil qilingan. Bu ansamblning rahbari Abdulla Qodiriy isimli tambur chaluvchi sozanda u kishi Shahrizabz shahridagi xazrati Imom mahallasida Mirzo Abdulqodir Qorovulbegi oilasida tavallud topgan.



Abdulla Qodiriy avval Shahrizabz , Qarshi madrasalarida keyin esa Buxoro shahridagi miri Arab madrasasida tahsil oladi va madrasani tamomlagach Buxoroda Amir Olimxon saroyida mirzo lavozimida ishlaydi. Shu vaqtda saroydagi musiqa cholg'ularini tayyorlovchi xalq ustalaridan musiqa cholg'ulari tayyorlash sirlarini o'rgandi. U bo'sh vaqtlarida faqat tanbur chalishni yaxshi o'zlashtirib ba'zi-ba'zi majlislarda tanbur ijro etar edi va usha yillar Abdulla



Qodiriy Buxoroda yashab ijro etadigan madaniyat, san'at musiqa ijrochiligini yo'lga qo'yishga jonbozlik qilgan o'zbeklarning birinchi professori Abdurauf Fitrat bilan uchrashdi va bu tanbur chaluvchi sozandaga Fitrat "Tanburiy" degan taxallus berdi.

Abdulla Qodiriy 1923 yilda Maskva shahridagi madaniyat marifat sharq institutida taqsil olib u bu yetuk inistitutda tahsil olayotgan eng yetuk o'zbek aktyorlaridan Sora Eshonto'rayeva Mannon Uyg'un abror xidoyatovlar bilan birga tahsil oladi va ular bilan tanishadi. U kishi Qarshi shahriga qaytgach musiqa cholg'ularini tayyorlab ustachilik qila boshlaydi. O'nga yaqin musiqa cholg'ularini tayyorlaganidan keyin 1932 yilda badiiy xavaskorlik guruhini tuzadi, shu tuzilgan guruh asosida Qarshi teatri tashkil qilinadi.


Dsatlabki tashkil qilingan badiiy xavaskorlik to'garagi, ya'ni musiqiy dastaga Abdulla Qodiriy Tanburiy, Maxmud Savdoiy Tanburiy, Mamatqul Jalilov, Bahrom Kamolov, Hayotxon, dutorchi va boshqalar faoliyat ko'rsatgan.

Hozirgi kunda bu teatr Mullato'ychi Toshmuhammedov nomi bilan atalib faoliyat ko'rsatmoqda. Albatta bu teatr Qashqadaryo madaniyati va san'ati asosini tashkil etadi. Chunki bu teatrdan eng yetuk aktiyorlar, mutabbir-sozandalar, xofiz va xonandalardan Mamatqul Rajabov, Rajab Shoyqulov, Bahrom Kamolov, A'zam Rajabov, Rahimjon Komiljonov, Aliqul To'layevlar shular jumlasidan bo'lib, bu teatrdan 1941-1942 yillarda O'zbekiston xalq artistlari Turg'un Alimatov, Sur'at Po'latov, bastakor Ibrohim Hamroyevlar aham faoliyat ko'rsatishgan. Ayniqsa yetuk artist usnoz sozanda Burxon Muqimov uzoq yillar davomida ushbu teatrdan ham sozanda ham musiqa rahbari va drijyor sifatida faoliyat ko'rsatib ko'pgina musiqali dramalarni ashula ijrochilarini sahnalashtirib, teatr aktiyor va aktrisalarning ovoz imkoniyatlarini hisobga olgan holda yozilgan musiqali dramalar ashula ijrolarini yarim, bir yarim va undan yuqori va past tondagi ijrolarni butun musiqali drama asarlarni boshlanishidan oxiriga tranepazetsiya qilish, yangi-yangi qo'shiqlar cholg'u musiqalarini bastalash musiqa ijrochiligiga tegishli masalani hal qilib uzoq yillar davomida musiqa rahbarlari bo'li, faoliyat ko'rsatgan.

O'sha yillarda teatr sohasida Buroxon Muqimov rahbarligida bir qancha musiqali dramalar sahnalashtirildi. Chunki teatr drejori kasllanib drijori teatr rahbarligi tomonidan Burxon Muqimov yetuklanadi. Usha yillar teatr gullab yashnashi davom etadi. Ko'plab juda katta asarlar va musiqali dramalar sahnaga qo'yildi.

Masalan: "Tohir va Zuhra", "Aziz va Sanam", "Alpomish", "Ravshan va Zulayho", "Xolisxon", "Boy ila xizmatkor", "Farhod va Shirin", "Qaynona" va shunga ko'ra o'xshash ko'plab zamonaviy asarlar sahnalashtirilgan edi.

Burxon Muqimov yangi ishga kelgan vaqtida Jo'ra Ibrohimov drejor lavozimida ishlar edi. Ikkalalari birgalikda "Oshiq G'arib va Shohsanam" musiqiy drama asarini sahnalashtiradi. Asar yuqori saviyada tayyorlanib sahnaga qo'yiladi va tomoshabinlar olqishiga sazovor bo'ladi.





Oradan bir oy o'tmasdan drijor kasallanib ishdan ketib barcha masuliyat Burxon Muqimov zimmasiga qoldi. Shu aktrissalar bilan birgalikda "Maysaraning ishi" spektaklini sahnalashtirish sohasida ish olib bordi. Bu spektaklni klaver musiqa ijrolarini yozilgan notalari yo'q edi. Uning notalarini teatrning bosh rejissori Aliqul To'layev tomonidan Toshkendan borib olib keldi. Mening esa asosiy ishim kloverdagi musiqa ariya, duet, ariozalarga boy spektaklni tayyorlash ustida ish olib borish edi deb takidlaydi. Burxon Muqimov musiqiy asarlarni ijrolari juda ham murakkab ijro yo'llariga xos bo'lib unga 2-3-4-5-6-7 hissali o'lchovlardan iborat musiqiy asarlar spektaklining to'rt ko'rinishda ijro etish kerak edi. Bu asarni tayyorlashda esa mashaqatli mehnat ijodiy ish olib borishni taqozo etadi. Bu asar esa tez orada sahnalashtirilishi kerak edi. Bu esa yosh drijor uchun ham maktab ham dastlabki imkoniyat edi. Bu asardagi musiqiy asarlarni ijro etuvchi sozandalar ham kam miqdorda edi. Chunki teatrda juda ko'p konsertlar bo'lib, shu sozandalar ham konsertda ham spektaklda ishtirok etar edi.

O'sha davrlarda teatrda sozandalardan paydo Nayim aka Sattorov torda Sharif aka Sohibov, skripka a g'ijjakda Burxon Muqimov va Qurbon aka Rajabov, rubobda Xusanboy Sanayev, Bozor aka Berdiyev, doirasida Fayzulla Islomov, changda va doirada Toshpo'lat axmedov, akkardionda Hanberdi Mengeshevlar jo'r bo'lishar edi. Bu ijrochilar eng yetuk o'z kasbini mohir ijrochisi sozandalari edilar.

Shu tariq oylar yillar o'tib o'n yil davomida teatr sahnasida "Farhod va Shirin", "Toshbolta oshiq", "Layli va Majnun", "G'azi fojiasi". "Paranji sirlari", "Bahor", "Guli siyoh", "Nurxon", "Laylak bilan Talakay", "Aytganim keldi", "Ikki bilak uzuk", "Jon qizlar", "Tohir va Zuhra" va shunga o'xshash o'ttiz qirqa yaqin drama asarlari spektaklning aria va duetlari musiqa ijrolari aktiyorlar va sozandalar bilan hamkorlikda sahnalashtirilib tomoshabinlarga hadiya etildi.

Ba'zi bir sahnalashtiruvchi sahna asarlariga musiqa yozishga to'g'ri kelib Burxon Muqimov o'sha yillarda Qarshi teatri sahnasiga qo'shilgan "Aytganim keldi", "Alakay bilan Tolakay" , "Bahor" kabi spektakllarga musiqa bastalab, bu asarlar sahnaga qo'yilgan. Sahnalashtirilgan bu asarlarni o'zi ham musiqasi ham sahnaga beriladigan tasdiqdan o'tdi. O'sha yillarda teatr sahnasiga berilgan 1960 yillarda ko'pgina konsert dasturlari Qarshi cho'lini o'zlashtirishga bag'ishlangan bir davrda ko'pgina duet va ashulalarga musiqa dastlab Burxon Muqimov rahbarligida uzoq vaqt yillar konsert repertuarlarida ijro etildi. Masalan: shoir O'roq Mustafoyevning "Bog'la belingni", "Kanalechi yigit qiz" duetlari Kamtar she'ri bilan "Bog'bon bo'lay men" O'tkir Rashidovning "Uchrashuv" dueti, Akmal Po'latovning "To'y yallasi" ashulalariga va bir qancha ashula dueti va spektakllarda Burxon Muqimov va buyuk istedod sohibi bastakor rejissor Aliqul To'layev bilan birgalikdagi ijodiy hamkorlikda amalga oshirilgan. Bu ikki ustoz teatrda birgalikda hamkorlik qilib Qashqadaryo teatr hayotiga o'zlarining ulkan hissalarini qo'shgan.





O'sha yillarda teatrdan drijyorlardan Jo'ra Ibrohimov, Buronxon Muqimov, Rahim Komiljonov sozandalardan Bo'ronxon Muqimov, Bahridin Ostons, Ravshan Muhammadiyev, Naim Sattorov nayda Sharof Sohibov Yo'ldoshali Rahimovlar dutorda Toshpo'lat Ahmedov chang va doirada Haqberdi Mengshiyev akkardionda Jalil Ashurov doira jo'rligida musiqiy asarlar ijro etilgan bo'lsa musiqali dramalarning ariya va duetlar esa yetuk aktiyorlardan Bahrom Kamolov, Fayzulla Ochilov, Yoqub Rajabov Majid Muhiddinov, Muxtaram Nosirova, Xol ak Rajabov, Tojiddin Murodov, Lolaxon Ashurova, Ashurali Xoliqov, Saygul Gulmurodova, Odioljon Ismoilov, Halima Isroilova, Husan Asherqulov, Omon Beganjiyeva, Mukarram opa Hamidova, Xaqberdi va Hazratqul Amirqulovlar, Arslon Sultonov, Fayzulla Islomov, Tolib Jalilov va boshqalar tomonidan ijro etilgan shu yillarda teatrga Hayit aka Mustafoqulov, Sharif Qobilov, Muhiddin Majidov va boshqalar rahbarlik qilgan.

Hozirgi kunda Qashqadaryodagi Mullto'ychi Toshmuhammedov nomidagi musiqali drama teatr jamoasi ustozlar ananasini davom ettirib ko'pgina konsert dasturlari va turli xil musiqali dramalarni tayyorlab tomoshabinlarga hadiya etmoqdalar. Teatrdan yetuk sozandalar Islom Rajabov changda Salohiddin A'zamov va Nishonboy Avazov g'ijjakda Zafar Eshqulov, Elmurod Rasulov nayda Zafar Mengiyev, Jamshid Ashurov, Sur'at Ahmedov, Hosir Umirovlar doirada, Otabek Boygayev sozda va boshqalar sozanda sifatida Azamat Sattorov musavvir sifatida faoliyat ko'rsatmoqdalar. Teatrdan esa Sharof Raxmatov Kommuna Kamolovlar rahbarlik qilmoqda.

"Eski masjid" teatri jamoasining ham Qashqadaryo madaniyatida o'rni bo'lib hozirgi kunda Qashqadaryo ashula ijrochiligi o'ziga xos ijro yo'liga ega. O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artistka Oygul Halilova ham shu teatrdan faoliyat ko'rsatadi. Teatr jamoasi O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi Ishoq To'rayev rahbarligida o'zining teatrlashtirilgan musiqali barnomalarini Respublikamizning mustaqillik bayrami O'rta Osiyo umumjahon miqyosidagi musiqiy ahjumanalrda namoyish etib muvafaqqiyatlarga erishadilar.

Shahrisabz shaharida esa Qori Siroj nomidagi xalq teatr jamoasi o'ziga xos uslubda musiqa asarlarini o'rganish va targ'ib qilishda samarali ijodiy ishlarni amalga oshirilmoqda. Bu teatr faoliyati ko'rsatgan ustoz O'zbekiston xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi Elmurod Boymurodov bir qancha yosh ijodkorlarga maqom ansamblini va zamonaviy musiqa asarini o'rgatmoqda bu ustozdan tahsil olgan shogirdlardan Mariyam va Nasiba Sattorovalar musiqa ijrochiligida o'ziga xos uslub yaratgan xushovvoz xonandalardir.



I.2 Madaniyat va san`at kollejlari


Madaniy'lumki O'zbekistonda hududlardagi ko'pgina viloyatlarda madaniyat texnikumlari faoliyat ko'rsatar edi. Nihoyat 1968 yilda O'zbekiston madaniyat xodimlari vazirligining tashabbusi bilan Qarshi shahrida Madaniyat texnikumi tashkil etildi, texnikumni tashkil qilishda Madaniyat vazirligi yetuk madaniyat xodimi Rashid Sobirjonov Qarshi shahriga kelib Madaniyat texnikumini ochib uning maqsadi ish faoliyatini vazifasi haqida madaniy'lumotlar bilan tanishtirib ushbu xayrli ishga o'z hissasini qo'shdi. Texnikumda dastlabki yillarda Jo'ra Xidirov direktor lavozimligida ishladi. Madaniyat texnikumida dastlabki yillarda Qashqadaryodagi madaniy oqartuv ishlar va bibliotekalar uchun mutaxassislar tayyorlash vazifalari amalga oshirildi. Dastlabki yillarda texnikumda Buronxon Muqimov, Sidiqxon Axmedov, Qodir Rajabov, Murodilla Abdulkarimov, Bahrom, Hamidov, Sobirjon Saydullayevlar musiqiy mashg'ulotlar olib borib hozirgi kunda Davron Omonov, Ravshan Muhammedov, Xaqberdi Botirov, G'ulom Primov, Rahim Hakimov, Odiljon Islomov, Nishonboy Avazov, Fahriddin Umarov va boshqalar musiqadan amaliy va nazariy mashg'ulotlar olib borishmoqda. Hozirgi kunda Madaniyat texnikumida Abdurhmon Berdiyev rahbarlik qilmoqda.

Qarshi musiqa bilim yurti keyinchalik san`at bilim yurti hozirgi kunda san`at kolleji bastakor Muxtor Ashrafiy tashabbusi bilan 1972 yilda tashkil qilingan bu musiqa bilim yurtida dastlab Ibrohim Umarov keyin Rihs Rajabov hozirgi kunda Salimjn Saimov rahbarlik qiladi, san`at bilim yurtida musiqa ilmining amaliy va nazariy sohalariga tegishli mashg'ulotlar olib borilmoqda. Bu musiqa maskaniga nazariya cholg'u ijrochiligi, xor drijorligi, vokal ijrochiligi an'anaviy ijrochilik, teatr rassomchilik, duzandalik sohalariga tegishli mutaxasis tayyorlash uchun mashg'ulotlar olib boriladi.

Hozirgi kunda musiqa bilim yurtida Toshkent davlat konservatoriyasini tamomlagan yetuk mutaxassislar amaly va nazariy mashg'ulotlar olib obrishadi. Ravshan Ziyodov, Jobir Jumayev, Nusurxon Tursunov, Azamat Rajabov rubobdan Davron Ziyodov, Salohiddin A'zamov, Bahriddin Ostonov, Sunnat Salohiddinov, Doniyor Mengashev, Jumanazar Ibrohimov, Jamol Xolmurodov, Tojiddin Qodirovlar; g'ijjakdan: Islom Rajabov Haqberdi Egamberdiyev, Anora Inoyatova, Zebo Tohirova; changda: Rustam Abdulg'oziyev; boyandan: Murodilla Abdulkarimov, tanburda Fazliddin Tusunov, qomindan Halil Muhammadiyev, Zafar Azizov, Qahramon G'ofurovlar, doiradan Fayzulla Islomov, Egamberdi Tursunov, vakal ijrochiligida Azamat Sharipov, Yodgor Bozorov, ashuladan Ibrohim Umarov, pianinodan Otajon Matjonov, Qo'shnay musiqa cholg'ulari sinfi bo'yicha olib boriladi.



Tanbur sinfi Sa`dullo va Shuhrat Nihol Mukofoti sovrindorlari



I.3. Qarshi davlat universitetidagi musiqa kafedrası

Qarshi davlat universitetida ham uzoq yillar davomida musiqa kafedralari faoliyat ko'rsatib kelmoqda. Musiqa kafedralari ko'p yillrdan buyon Pedagogika va Musiqa fakulteti tasarrufida faoliyat ko'rsatib kelmoqda/ bu fakultetda professor Malla Ochilov, Abdushukur Choriyev, dotsentlar Meyli Oripov Tal'atoy G'afforova, Qo'yli Xurramov va Toshbotir Rasulov, Odli Rahmatov va boshqalar rahbarlik lavozimida ishlagan. Musiqa kafedrasida taniqli bastakor Rahmatjon Tursunov ham mudirlik lavozimida ishlagan.

2000 yillargacha fakultetda 1 ta musiqa kafedrası aoliyat ko'rsatgan bo'lsa hozir 2ta "Cholg'u ijrochiligi" va "Qo'shiqchilik" kafedralari faoliyat ko'rsatmoqda.

"Cholg'u ijrochiligi" kafedrasida faliologiya fanlari nomzodi dotsent Sami Aziz o'g'li rahbarlik qiladi. Kafedrada dotsent Abdujabbor Rahmonqulov hamda o'qiyuvchilardan Qo'ldosh Qurbonov, Rashid Primov, Shavkat Omonov, Yodgor Islomov, Laziz Pirnazarov, Zokir Yusupov, Amirqul Turdiyevlar ishlaydi.

"Qo'shiqchilik" kafedrası 2001 yilda tashkil etildi. Kafedra mudiri san'atshunoslik fanlari nomzodi dotsent Murodilla Abdukarimov maqom asoslari tanbur va an'anaviy qo'shiq fanlaridan, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artistka Oygul Halilova va o'qituvchilar Muhiddin Murodov, Nilufar Ashurova, Asadulla Sohibovlar an'anaviy qo'shiqchilik Keskir Ulashov, Abduqahhor Tilovov, Mahbuba Ismoilova vokal sinf ijrochiligi bahodir maksimov, Fahriddin Saidov, Fayoz Azizovlar drijorlik fanidan sinfadan Dilmurod Mingshiyev, Otajon Matjonov, Akrom Sattorov, oga Kivarkovlar konsertmeykerlik siniflaridan mashg'ulot olib borishdi.



"Qo'shiqchilik" kafedrası xuzurida universitet rektori Gulmirza Xudoyberganovlar tashabbusi bilan "Bayot" nomli milliy ansambl tashkil qilinib dotsent Murodilla Abdukarimov rahbarligida faoliyat ko'rsatib kelmoqda. "Bayot" an'anaviy jamoasi universitet tashkil topganligi 10 yilligiga bag'ishlanib viloyat televideniyesi orqali ham ko'pgina konsert dasturlarini namoyish etmoqda.

Ma'lumki har yili "O'zbekiston vatanim manim" qo'shiq tanlovi o'tkaziladi. Ansambl jamoasi yakkaxon xonandalar O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artistka Oygul halilova va Muhiddin Murodovlar hamda sozanda va xonandalar jamoasi bilan birgalikda O'zbekiston Respublikasi Oliy va O'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan 2002 yil 29 iyun Toshkent shahridagi ustalarning aqliy va jismoniy mehnatlarining maxsuli hisoblanadi chunki, musiqa cholg'ulari musiqa ilmining amaliy va nazariy asoslarini tashkil etadi. Chunki milliy musiqa cholg'ularida har bir millatning milliy musiqa ijrochiligiga xos asoslari ijro etiladi. Bastakorlar milliy musiqa cholg'ulari jo'rligida hofiz xonandalar ashulla ijro etadilar hakoza.

Dsalabki yillarda Qashqadaryo usat Abdulla Qodiriy Tanburiy milliy musiqa cholg'ulari tayyorlovchi xalq ustalari va sozandasi sifatida faoliyat ko'rsatgan, hozirgi kunda esa u kishining farzandlari usta Inoyat otalari an'alarini davom ettirib kelmoqda. Shu bilan birga usta Atham, usta Toshpo'lat, Usta Ishoq va boshqalar ham ustachilik sohasida ijod qilmoqdalar.



Bayot nomli milliy ansambl



II BOB. SURXANDARYO QASHQADARYO MUSIQA USLUBI HAQIDA TUSHUNCHA

II.1. Musiqiy uslublar

Surxondaryo –Qashqadaryo musiqa uslubi haqida gapirilganda Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlari hududida shakillangan barcha musiqiy-badiiy an’analar tushuniladi. Bu an’analar mehnat ayrimlari, mavsumiy marosim qo’shiqlari, cho’ponlar ijodi, baxshilar san’ati va xalq ijodiga oid yana ko’plab qo’shiq va cholg’u kuylaridan tashkil topgan. Shuni ham aytish keraki, musiqiy an’analarning kelib chiqish negizlari qadimiy davrlardga taaluqli bo’lib, ular turli vaziyatlarda, jumladan xalqning turmush tarzi bilan bo’liq turfa ko’rinishlarda mehnat jarayonlarida, oilaviy sharoitda o’tkaziladigan urf-odat va marosimlarda, ommaviy sayl va tantanalarda yuzaga keladi.

Surxondaryo–Qashqadaryo hududlarida yashovchi mahalliy aholi uzoq davrlardan buyon chorvadorlik va dehqonchilik mehnati bilan shug’ullanib keladi. Shu ham bu yerlarda mehnat jarayonlari bilan bog’liq aytim va cho’pon kuylari juda ko’plab ijod etilgan. Xalq musiqasi namunalari esa dastlab istedadli shaxslar tomonidan yakka yoki jamoa ushtirokida yaratilib so’ngra el orasida og’izdan og’izga o’tib ommalashadi. Shu tarzda asrlar davomida kuylanib kelinayotgan mehnat qo’shiqlari bizga qadar xalq xotirasida va mehnat amaliy tajribasi faoliyatida saqlanib kelindi bundan tashqari mavsumiy marosim ommaviy bayram va xalq sayillari (Masalan Navro’z bayrami lola sayli va boshqalar) qo’shiqlari hamda qarsak o’yin aytimlari va yana ko’plab xalq qo’shiq kuylari o’tmishdan bizning davrimizga meros bo’lib qoldi.

Musiqa merosining ulkan qismi bo’lgan dostonlarni baxshilar o’z xotiralari va ijodlarida saqlab, ijro etib kelmoqdalar.

Musiqa tinglash: kompozitor Sulton Anvorovning shoir Rustam Ochil she’riga bastalangan ”Mustaqil vatanda” qo’shig’ini tinglab, uning kuy ohanglari va so’z ma’nolarini tavsiflab bering.



Mustaqil Vatanda

Sulton Anvarov musiqasi

Rustam Ochil she’ri

Tezroq:

Kuylang endi baralla,





Avjiga chiqdi yalla,
Bizlar aytamiz yalla,
Mustaqil hur vatanda.
Alyor, alyor xush ovoz,
Endi yashash qanday soz,
Ko'krak kering misoli g'oz,

Mustaqil hur vatanda.

Qaddi qomat tiklanur,
Dillar endi uyg'onur,
Qanday soza yashash hur,
Mustaqil hur vatanda.



Aytim. Ovozingizni sozlash uchun quyidagi aytim mashqlarini bajaring (kuylang): a/
"lola" qo'shig'i asosida:



”O'zbekiston davlat madhiyasi”ni kuylashga o'rganing

”Madhiya” so'zi arabcha bo'lib, ”maqtov”, ”ta'rif” ma'nolarini anglatadi. Demak, O'zbekiston davlat madhiyasi jonajon diyorumizni, bag'ri keng xalqimizni vasf etuvchi taronadir.

Madhiyani atoqli o'zbek shoiri Abdulla Oripov va o'zbek kompozitori Mutavakkal Burxonov ijod etgan. Madhiyani gram yozuvida yoki o'qituvchingiz ijrosida tinglang. So'ngra uning kuy ohanglari va tuzuk asoslarini o'qituvchingiz ko'magida tavsiflashga harakat qiling hamda madhiyani birinchi bandini kuylahsga o'rganing.





O'zbekiston Respublikasining Davlat Madhiyasi

A.Oripov she'ri

M.Burxonov musiqasi

Сер-ку - ёш, хур ўл - кам, эл - га бахт, на - жот, сен ў -
 зинг дўст-лар - га йўл-донш меҳ-ри - бон! Меҳ - ри - бон! Яш-на -
 гай то а - бад ил - му фан, и - жод Шухратинг пор-ла - син то-ки бор жа - хон!
 Ол - тин бу во - дий-лар жон Ўз-бе - кис - тон! Аж-дод - лар мар-до -
 на ру - хи сен-га ёр! У - луг халқ қуд-ра-ти жўш ур - ган за-мон, о-лам -
 ни маҳ - ли - ё ай - ла - ган ли - ёр! Бағ-ри
 ган ди - ёр!

Serquyosh, hur o'lkam, elga baxt najot,
 Sen o'zing do'stlarga yo'ldosh mehribon!
 Yashnagay toabad, ilmu fan ijod,
 Shuhrating porlasin toki bor jahon!



Naqorat:

Oltin bu vodiylar- jon O'zbekiston ,
Ajdodlar mardona ruhi senga yor!
Ulug' xalq qudrati, jo'sh urgan zamon,
Olamni mahliyo aylagan diyor!

Bag'ri keng o'zbekning o'chmas iymoni,
Erkin yosh avlodlar senga zo'r qanot!
Istiqlol mash'ali tinchlik posboni,
Xalqsevar ona yurt, mangu bo'l obod!
Noqorat:

Musiqqa savodi. Tayanch parda.



Bolalar, agar e'tibor bergan bo'lsangiz qo'shiq kuylash vaqtida ma'lum bir tovush ko'p marotaba takrorlanib davomli ritm cho'zilmalari bilan alohida ajralib turadi. Qo'shiqlar ham ko'pincha ana shunday tovush bilan tugaydi. Bunday tovushni qo'shiqning asosiy pardasi, turg'un pardasi yoki tayanch pardasi deb ataladi.

Ko'pgina qo'shiqlar tayanch parda bilan boshlanib, shu parda bilan yakunlanadi. Ammo tayanch parda qo'shiqning boshlanishida kelishi shart bo'lmasada biroq oxirida kelib, o'ziga xos "nuqta parda" sifatida qo'shiqni tugallashi shartdir. Shunday misolni O'zbekiston davlat madhiyasida ko'rishimiz mumkin. Jumladan madhiya "re" tovushi bilan boshlanib "sol" tovushi bilan yakunlanadi. Demak, madhiyaning asosiy tayanch pardasi "re" emas, balki "sol" tovushidir.

II.2. Surxondaryo-Qashqadaryo an'anaviy musiqa cholg'ulari

Surxondaryo –Qashqadaryo an'anaviy musiqa cholg'ulari uzoq o'tmishdan buyon mahalliy aholi orasida ardoqlanib, ijro etilib kelinayotgan sozlar bo'lib, ularda asosan qo'biz, cho'pon nay yoki g'ijjak nay, sibiziq, chanqobuz, do'mbira va doira kabilari tashkil etadi.

Qo'biz torli-kamonli cholg'u bo'lib, u o'yma kosa, yog'och dasta va ikki tordan iborat bo'ladi. U kamon vositasida chalinadi.



G'ajir nay uzunasiga (ya'ni bo'ylama tarzida) ushlab chalinadiga (puflamalar) soz bo'lgan uning nomi cho'l burguti-g'ajirdan kelib chiqqan. Chunki bu nay shu nomli burgutning qanot suyaklaridan tayyorlangan. G'ajir nayda barmoqlar vositasida bosishga doir to'rtta teshikcha bo'lib, shulardan uchta old tomondan, bittasi esa nayning quyi qismida joylashgan bo'ladi. G'ajir nay asosan cho'ponlar tomonidan sevib ijro etilganligi bois uni goho "cho'pon nay" deb ham ataydilar.

Puflama cholg'ularidan yana biri sibiziq sozi bo'lib, u oddiy qamishdan yasaladi. Sibiziq ham g'ajir nay singari uzunasiga ushlab chalinadi.



Sibiziqning puflama tomonida "tilcha" kesilgan bo'lib, old tomonida barmoqlar bosilishiga oid uchta teshikcha bor.

Chanqobuz esa maxsus tilchasi cholg'u bo'lib, u temir yoki suyakdan tayyorlanadi.

Temir chanqobuz odatda aylana shakilda bo'ladi. Uning o'rtasidagi 7-9 sm uzunlida po'lat til o'tkaziladi. Chanqobuzni chalish uchun uni chap qo'l bilan tishlarga bosib turish kerak va ayni vaqtda, o'ng qo'lning ko'rsatgich barmog'i ta'sirida tilchani to'lqinlashtirib turish kerak. Bu cholg'uning tuzilishi oddiy va ommabop bo'lganligi uchun uni faqat kattalar, bolalar ham sevib chaladilar.

Do'mbira sozi ikki torli chertma cholg'udir. Agar diqqat bilan e'tibor bersangiz uning dutor soziga o'xshashligini ko'rasiz. Ammo u dutordan o'ziga xos "bo'g'iq" sadolanishi, nisbatan qisqa va dastasida bog'lama prdalari yo'qligi kabi jihatlari bilan farq qiladi.

Do'mbira cholg'usi Surxondaryo-Qashqadaryo mahalliy musiqasida keng joriy etilgan sozlardan u baxshi va cho'ponlar tomonidan sevib ijro etiladi. Musiqa tinglash cho'ponlar ijodi bo'lgan.



A'zam Rajabov



Haqberdi Egamberdiyev




Bo`ronxon Muqimov



Zafar Isoqulov





Dastlabki tashkil qilingan ansambl jamoalari



Musiqa savodi. Inrevallar. Prima. Musiqani tashkil etuvchi tovushlar bir biriga nisbatan ma'lum oraliqda joylashgan bo'ladi. Ana shu oraliq lotinchada "interval" deb ataladi, demak interval deganda ikki tovushning oraliq nisbati tushiniladi. Tovushlarning oralig'i esa turlicha bo'lishi mumkin. Bularni farqlash uchun prima (birinchi), sekunda (ikkinchi), tretsiya(uchunchi) kabi maxsus atamalar qo'llaniladi.

Prima intervali italyan tilida "birinchi" degan ma'noni ifodalaydi. Shuning uchun shartli ifoda belgisi "I" raqamidir. Bu intervalni hosil qilish uchun bir pog'onadagi tovushni ikki marotaba qaytarish (ya'ni soddalashtirish) qiyofasidir.



II.3. Mehnat, dehqonchilik, chorvachilik qo'shiqlari

Surxondaryo-Qashqadaryo musiqa uslubida mehnat jarayoni bilan bog'liq qo'shiqlar salmoqli o'rinda turadi. Bu turdagi qo'shiqlar aholining qadimgi davrdan buyon saqlanib kelinayotgan chorvachilik va dehqonchilik kasblari bilan bog'liq holda yuzaga kelgan.

Chorvachilikka doir qo'shiqlar (aytimlar) assosan "sog'im qo'shiqlari"dan iborat bo'lib. Ular qora mol,biya, tuya, echki, qo'y kabi hayvonlarni sog'ish vaqtida kuylangan. Bunda "xo'sh-xo'sh" aytimi qora molni sog'ishda "Turey-turey" va "churey-churey"lar jonivorlarni tinchlantirish, erkalash va ulardan iydirib ko'p sut sog'ib olish maqsadlarida qo'llaniladi.



Dehqonchilik qo'shiqlari shu kasb bilan bog'liq jarayonda yuzaga kelgan qo'shiqlardan iborat bo'lib, "Qo'sh haydash", "Xo'p hayda", "Mayda-mayda", "Yozi" kabi nomlar bilan atalib kelinadi. Qo'sh haydash qo'shigi yer haydash paytida ho'kizga qo'shilgan omochni boshqarib borayotgan dehqon tomonidan ayitilsa "Yozi" aytimi hoslini o'rish paytida "Xo'p hayda" va "Mayda-mayda"lar va bug'doy va arpa poyalarini xirmonda ot yoki ho'kizlar yordamida yanchish vaqtida xirgoyi qilinadi.

Dehqonchilik bilan bog'liq bo'lgan barcha ishlarning boshlanishida "Shox moylar" marosimi o'tkazilgan. Bu marosimga boshlanishi erta bahor fasli, ya'ni yerni dastlabki haydash vaqtiga to'g'ri keladi. Marosimda qishloq ahli yig'ilib, ho'kizlarning shoxlarini Navro'z bayramiga atab pishirilgan bo'g'irsoq yog'i bilan moylashgan hamda qishloq keksalaridan biri bobo dehqon bo'lib dalaga birinchi qo'sh solgan. Ana shu qavtda marosimda hozir bo'lgan "Shox moylar" qo'shig'ini kuylashgan.

O'zbek mehnat qo'shiqlarini quyidagicha guruhlarga ajratib o'rganish lozim. Bular:

1. Dehqonchilik bilan bog'liq qo'shiqlar.
2. Chorvachilik bilan aloqador qo'shiqlar.
3. Hunarmandchilik bilan bog'liq qo'shiqlar.

O'zbek xalq og'zaki ijodida ovchilik, savdo-sotiq kabi mehnat turlari bilan bog'liq qo'shiqlar hozir saqlanib qolmagan. Shuning uchun ham aytilgan ikki mehnat turi bilan bog'liq qo'shiqlarga tasnifdan o'rin berilmadi. O'rta Osiyo xalqlari qadim-qadim zamonlardan dehqonchilik bilan shug'ullanib keladi. Binobarin, mehnatning bu turi bilan bog'liq qo'shiqlar rang-barang bo'lib, ulardan bizga qadar «Qo'sh qo'shiqlari», «O'rim qo'shiqlari», «Xirmon qo'shiqlari» (Xo'p maydalar) kabi janrlargina yetib kelgan. Bevosita dehqonning mehnat jarayoni bilan bog'liq bo'lmasa ham, biroq uning mehnat samarasi bo'lgan narsalar bilan aloqador qo'shiqlar ham mehnat qo'shiqlari doirasida olib qaraladi. Masalan, g'allani yorg'ichoq yordamida un qilish jarayopida ijro etiluvchi qo'shiqlar «yorg'ichoq qo'shiqlari» atamasi bilan dehqonchilik qo'shiqlari doirasida olib qaraladi.



Qo'sh qo'shiqlari. Dehqon mehnati erta bahorda yer haydashdan boshlanadi. Yer haydash esa og'ir jismoniy mehnat bo'lib, bunday tinkani quritadigan mehnat paytida dehqon qo'shiq kuylab, o'zini ovutgan va shu orqali mehnatning og'ir azobini unutgan.

Qo'sh qo'shiqlarida ish hayvonlariga murojaat, qo'sh tortayotgan hayvonlar tilidan og'ir mehnatdan qilingan shikoyat motivlari yetakchilik qiladi. Chunki og'ir mehnatdan, tengsizlikdan shikoyatning hayvonlar tilidan bayon etilishi dehqon dilidagi dard-alamlarni yorqinroq ifodalashning qulay usuli edi:

Shoxlarim bor gaz-gaz quloch,
Ustida o'ynar qaldirg'och.
Hayday desam qornim och,
Men qo'shga qanday yarayin.

Ho'kiz tilidan aytilgan bu shikoyat hosil yetishtirib, o'zi yarim och, yarim to'q hayot kechiruvchi dehqon hayotining real kartinasini chizishga xizmat qiladi. Demak, qo'shiqdagi hayvonning ochlik va og'ir mehnatdan qilgan shikoyati dehqonning og'ir, mashaqqatli hayotini bayon qilishning bir vositasidir.



Bo'ynimda bor bo'yinturuq,
Omochlari sharaq-shuruq.
Oqshom borsam, oxur quruq,
Men qo'shga qanday yarayin.

Qo'sh qo'shiqlarining ko'pgina namunalarida lirik bayon bevosita dehqon tilidan olib boriladi. Shuning uchun bu xildagi qo'sh qo'shiqlarida tengsizlik, nohaqlik hukmron bo'lgan jamiyatda oila qurish, tirikchilik qilishning naqadar og'ir ekanligiga aytiladi:

O'roq o'rmoq olmoq-solmoq,
Qo'sh haydamoq bormoq-kelmoq.
Hammasidan qiyin ekan,

Ey ho'kizim, ro'zg'or qurmoq.
Darhaqiqat, qo'sh haydash, o'roq o'rish qay darajada og'ir bo'lmasin, agar ro'zg'or but, qorin to'q bo'lsa, inson ularning barchasiga chiday oladi. Aks holda, hech narsa kishiga tatimaydi. O'z mehnatining samarasidan bahra topmagan dehqonning ho'kiziga qarata «ro'zg'or qurmoq qiyin ekan» deyishida ana shu hayotdan nolish, shikoyat yashirinib yotibdi.

Nochor hayotdan ezilgan dehqon o'z ho'kiziga murojaat qilar ekan, har ikkisining mehnat qilishga majburligi, busiz ularga kun kechirish mumkin emasligini aytib zorlanadi va ho'kizini qo'sh tortishga da'vat etadi:



Ho‘kizginam, bo‘yniginang ezildi,
Ko‘zginangdan yoshlar qator tizildi.
Bo‘yinturuq bilan omoch tortmasang,

Seni bilan menga go‘rlar qazildi.

Xullas, qo‘sh qo‘shiqlari har xil bo‘lib, ular yolg‘iz qo‘shchi tomonvdai bevosita qo‘sh haydash paytida goh baland ovoz bilan, goh xirgoyi qilib ijro etilgan. Qo‘sh qo‘shiqlarining asosiy vazifasi og‘ir mehnat paytida dehqonning ko‘ngil dardlarini aytib, o‘zini ovutish, o‘zi va ish hayvoniga dalda berish, ruhini ko‘tarishdan iborat.

Sotsialistik tuzum qishloq xo‘jaligini tubdan o‘zgartirib yubordi; dehqon og‘ir qo‘l mehnatidan ozod bo‘ldi, yer haydash traktorlar yordamida bajarila boshlandi. Dehqon mehnatidan qo‘shning chiqib ketishi bevosita qo‘sh qo‘shiqlarining yaratilishi va jonli yashashini passivlashtirdi. Hozir esa qo‘sh qo‘shiqlari deyarli unutilib bormoqda.

O‘rim qo‘shiqlari. Ilgari paytda yetilgan g‘alla qo‘lda o‘rib olingan. Bunday og‘ir va ayni paytda maroqli xmehnat paytida o‘roqchilar o‘zlarini ovutish uchun maxsus qo‘shiqlar to‘qib kuylaganlar. Ana shunday qo‘shiqlar shartli ravishda o‘rim qo‘shiqlari deb yuritiladi.

O‘rim qo‘shiqlar yakka shaxs yoki ko‘pchilik tomonidan ijro etilgan. Ularda bahorning injiq, yozning shafqatsiz issiq kezlarida qilingan mehnatning samara berganligidan quvongan dehqonning ko‘tarinki ruhi, yetilgan hosilni tezroq chig‘ib olishga bo‘lgan kuchli ishtiyoq tarannum etiladi:

O‘rog‘im olmos,

O‘rishdan qolmas.

Sira ham tolmas,

O‘rmasam bo‘lmas.

Don to‘lgan boshloqlarga murojaatdan iborat ayrim to‘rtliklar o‘rim qo‘shiqlarida naqarot o‘rnida kuylanadi. Bunday naqarotlarda dehqonning mehnat samarasini ko‘rishga oshiqish motivlari yetakchilik qiladi:


G‘ujmoqi bug‘doy,

Donginang to‘qay.

To‘p bo‘l, o‘raylik,

Xo‘pda ko‘raylik.

Mehnat qo‘shiqlarining ayrim namunalarida mehnat quollariga, dehqonning o‘z qadoq qo‘liga murojaat qilishi, o‘roqning o‘tkirigidan, qo‘lining charchoq bilmasligidan mamnunlik



holatlari kuylanadi. Bunday qo‘shiqlar esa tinim bilmay mehnat qilayotgan o‘roqchilarning kuchiga kuch, g‘ayratiga g‘ayrat qo‘shadi:

O‘rog‘im chaqqon,
Sen menga yoqqan.
Qo‘lginam chaqqon
Mehnatda boqqan.

Ayrim hollarda o‘roqchilar o‘rtasida dehqonchilik ekinlari tilidan dialog tarzida aytiluvchi qo‘shiqlar ham kuylangan. Ularda har bir ekin o‘zining afzallik tomonlarini ulug‘laydi:



Arpa aytar zamon-zamon,
Bug‘doy aytar olishaman,
Suvsizlikdan bo‘ldim somon.
To‘ylarga ko‘p yarashaman.
Men bo‘lmasam, non qaydadir,
O‘qlovlarga yovoshaman,
To‘lmadingmi, qora daryo?
To‘lmadingmi, qora daryo?..

Sholg‘om aytar shod bo‘lmadim,
Arzin aytib yig‘ladi mosh,
Bu g‘amdai ozod bo‘lmadim,
Hech kimsa yo‘q menga yo‘ldosh.
Suv ichib obod bo‘lmadim,
Kunda qozonda issiq osh,
Toshmadingmi, qora daryo?
Toshmadingmi, qora daryo?

Aslida bu qo‘shiqning o‘rim bilan aloqasi yo‘q. Lekin u o‘roqchilarning charchog‘ini tarqatish va shu orqali ularning kayfiyatini ko‘tarib, g‘ayrat bilan mehnat qilishga undash maqsadida aytilgan.

Ma‘lumki, o‘tmishda g‘alla o‘rimi hashar yo‘li bilan amalga oshirilgan. Hashar paytida o‘rimchilarni zeriktirib qo‘ymaslik, ishtiyoq bilan mehnatga chorlash maqsadida so‘zga chechan kishilar turli lirik qo‘shiqlardan yoki qiziqarli dostonlardan parchalar kuylab, o‘roqchilarga dalda berganlar. Qashqadaryo, Surxondaryo va Janubiy Tojikistonda yashovchi o‘zbeklar o‘rim paytida «Yozi bilan Zebo» dostonidan parchalar kuylaganlar. Chunki Yozi kal bilan Zeboning ishqi sarguzashtlari o‘roqchilarga, zavq bag‘ishlagan:

Zebijon erta ketadi soy bilan,
Qo‘lida chinni piyola moy bilan.
Chinnini nodonga bermang, sindirar,
Yaxshini yomonga bermang, kuydirar.



Hozirgi paytda g'alla kombaynlar vositasida o'rilganligi; sababli o'rim qo'shiqlarini etishga, ularning yaratilishi va jonli ijrosiga hojat qolmadi. Natijada, ular asta-sekin unutilib bormoqda.

Yanchiq qo'shiqlari. Urilgan donni yanchish uchun xirmon qili-nadi. Buning uchun doni ajratilmagan bug'doy doira shaklida yoyib qo'yiladi. Doira markazida yo'g'on ustun o'rnatiladi. Bir necha ho'kiz, ba'zan ot yoki eshak bir-biriga yonma-yon matab qo'yiladi. Ustun yonidagi hayvon esa ustunga bog'lanadi. Bir-birlariga matalib qo'yilgan hayvonlar esa galagov deyiladi. Galagovga xirmondagi poxolni tekislab borish uchun tut, qayrag'och kabi qattiq daraxtlarntshg shoxidan to'qilgan chakar, bog'lab qo'yiladi.

Dehqon galagov haydab kun bo'yi xirmonda don yanchar ekan, baland ovoz bilan yoki xirgoyi qilib qo'shiqlar aytadi. Ana shu qo'shiqlar xalq o'rtasida «Ho'p qo'shiqlari», «Maydalar», «Ho'p maydalar» yoki «Maydagul» deb yuritiladi.



Mayda qo'shiqlari mungli ohangda cho'zib aytiladi. Ularda, dehqonning yoz bo'yi qilgan og'ir mehnati natijasida yetishtirilgan hosilni tezroq yanchib olish istagi bayon etiladi:

Ho'p hayda-yo, ho'p hayda, maydayo-mayda,
Qalqon qulog'im hayda, maydaye-mayda.
Temir tuyog'im hayda, maydayo-mayda,
Xirmonni qilgin mayda, maydayo-mayda.
Ostingda bosgan donni, maydayo-mayda,
Oyog'ing qilsin mayda, maydayo-mayda.
Sen po'stidan judo qil, maydayo-mayda,
Somoni senga foyda, maydayo-mayda.

Demak, donni poxoldan ayirish dehqon uchun ham, hayvon uchun ham foydali, chunki don mayda qilingandan keyingina ular qishlovga ega bo'ladilar. Ko'pchilik mayda qo'shiqlarida don yanchilmaguncha ho'kizlarga ham, dehqonga ham tinchlik yo'qligi alohida ta'kidlanadi:

Chuv, hey jonvorim, hayda, maydayo-mayda,
Xirmonni qilgin mayda, maydayo-mayda.
Ishni tamom qilmasang, maydayo-mayda,
Joningga tinim qayda, maydayo-mayda.

Yanchiq paytida dehqonning birdan-bir orzusi ishning sifatli bo'lishidir. Chunki boshoqdan yaxshi ajratilgan don ortiqcha mehnat talab qilmaydi. Shuning uchun ham ayrim to'rtliklarda ish hayvonlarini yaxshiroq yanchiq qilishga undash motivlari yetakchilik qiladi:



Mayda-mayda, mayda qil, maydayo-mayda,

Qopda turgan unday qil, maydayo-mayda.

Bul maydani bo‘lgan so‘ng, maydayo-mayda,

Utli, suvli soyda bo‘l, maydayo-mayda.

Ishning ketishidan ba‘zan dehqonning ko‘ngli to‘lmaydi. Shunda u o‘zi maqtayotgan ho‘kizlariga do‘q-po‘pisa qiladi. Bu bilan u horib, charchagan ho‘kizlarni jonliroq ishlashga, aks holda, ularni so‘yib, terisidan etik tikajakligini aytib qo‘rqitadi:

Mayda-mayda, moybosar, maydayo-mayda,

Mayda senga yarashar, maydayo-mayda.

Sening qalin terilaring, maydayo-mayda.

Etik qilsa yarashar, maydayo-mayda.

Ish hayvonlariga do‘q-po‘pja qilish motivlari tezda ularga iltijo qilish, ularni maqtash motivlari bilan almashinib turadi. Chunki dehqonning rizqi ro‘zi faqat mana shu hayvonlarning kuchi bilan bog‘liq. Shu sababli u o‘z ho‘kizlarini olqishlaydi, ularga yaxshi tilaklar bildiradi:

Maydalar qil ko‘raylik, maydayo-mayda,

Shoxingga gul taqaylik, maydayo-mayda.

Shoxingdagi gullarni, maydayo-mayda,

Yaxshilikda ko‘raylik, maydayo-mayda.

Mayda qo‘shiqlarida dehqonchilik kasbining piri Bobo dehqon obrazi ham aks etgan. Uzoq ajdodlarimiz tasavvuriga ko‘ra, Bobo dehqon halol mehnat qiluvchi, o‘zgalar haqqidan hazar qiluvchi dehqonlarga hamisha homiylik qiluvchi, ularning unumiga unum qo‘shuvchi pir bo‘lib, u ayni sahar paytida dehqonlar ko‘targan xirmonlarda paydo bo‘lib, yetishtirilgan donning to‘kilib-sochilib ketishidan asrab, xirmon ko‘targan dehqonlar hosiliga baraka ulashadi. Mana shuning uchun ham mayda qo‘shiqlarida Bobo dehqonning xirmon ko‘rishga qadam ranjida qilish istaklari bayon etilgan:

Mayda-mayda morisin, maydaye-mayda,



Don somondan arisin, maydayo-mayda.

Tong shamoli esganda, maydayo-mayda,

Bobo dehqon dorisin, maydayo-mayda.

Mayda qo‘shiqlarining tematik doirasi keng bo‘lib, ularda; dehqonning og‘ir hayotdan nolishi, ish hayvonlariga iltijo va do‘q-po‘pisa qilishlaridan tortib ishqiy iztiroblargacha bayon etilgan. Masalan, quyidagi to‘rtlikda oshiqning o‘z mahjubasi-ga sovchi qo‘yganligi, lekin qizning otasi rad javobini berganligi, xullas, oshiqning ayriliq dardidan chekkan iztiroblari bayon etilgan:

Past-pastgina tevaning, maydayo-mayda,



Tevaragi past ekan, maydayo-mayda.

Sovchi qo‘ydim bermadi, maydayo-mayda,

Otang qurgur past ekan, maydayo-mayda.

Xullas, mayda qo‘shiqlarida qishloq hayoti, himoyasiz dehqonning qayg‘u-dardlari, yaxshi turmush haqidagi orzu-istaklari, sevgi quvonchlari-yu hijron iztiroblari to‘la aks etgan. Shuning uchun ham mayda qo‘shiqlari o‘zbek dehqonining uzoq o‘tmishini, siyosiy ongi va madaniy saviyasining rivojlanish darajasini o‘rganishda nodir manbalik vazifasini o‘taydi.

G‘alla o‘rish va uni yanchish ishlari mexaiizatsiyalashgach, mayda qo‘shiqlari ham asta-sekin unutilib bormoqda. Hozir bu qo‘shiqlarning namunalari ayrim keksalarning xotirasidagina saqlanib qolgan.

Yorg‘ichoq qo‘shiqlari. Vrg‘ichoq aylantirish og‘ir va unumsiz qo‘l mehnati bo‘lib, u o‘zining tarixiy ildizlari bilan suv yoki shamol tegirmonlari kashf etilmagan davrlarda vujudga kelgan. Keyinchalik u tog‘lik joylarda yashovchi chorvadorlar, shuningdek, cho‘l va dasht zonalarida kun kechiruvchi dehqonlar turmushida keng qo‘llanila boshlagan. Yorg‘ichoq qo‘shiqlarining muhim o‘ziga xosliklaridai biri faqat ayollar tomonidan ijro etilishi hisoblanadi.

Kun bo‘yi yorg‘ichoq tortish kishini jismoniy va ma‘naviy jihatdan qattiq charchatgan. Shu boisdan ham yorg‘ichoq aylantirish paytida aytiladigan maxsus qo‘shiqlar yaratilganki, ularda mehnatkash xalqning muhtojlikda yashashi, turmushining og‘irligi ifodalangan:

Yorg‘ichoq tortmas edim,

Och qolganimdan tortaman.

Sabzavon aytmas edim,

Kuyganlarimdan aytaman.

Yorg‘ichoq qo‘shiqlarining ayrim namunalarida tegirmonning afzalligi, og‘ir toshni aylantirish ayol kishi uchun naqadar mashaqqatli ekanligi bayon etilgan:



Yorg‘ichoqni taq-taqijon deydilar-o,

Tegirmonni rohatijon deydilar-o.

Yorg‘ichoqdan horib chiqqan bandaman-a,

Xo‘jahayvon bo‘yni yo‘g‘on deydilar-o.

Mashaqqat bilan topilgan donni un qilib, bolalarga non, ovqat pishirib berish uchun ayol kishi kun bo‘yi tinmay yorg‘ichoq toshini aylantiradi. Mana shu paytda uning xayoli tirikchilik tashvishida uzoq safarga ketgan yorining omon-eson qaytib kelishi bilan band bo‘ladi. Shuning uchun ayrim to‘rtliklarda ayolning intizorlik bilan to‘lgan mungli nidolari yetakchilik qiladi:



Yorg'ichog'im, gumbur-gumbur etadi,

Nortuyalar quloq solib o'tadi.

Karvon bilan rizq-ro'zimiz olib,

Eson-omon og'ajonim qaytadi.

Yorg'ichoq qo'shiqlarining ayrimlari satirik xarakterda bo'lib, ularda mehnatkashlarning qonini zulukdek so'ruvchi boy va amaldorlar hajv qilingan:

Quloq solay ovoz chiqar, yorg'ichog'im,

Mullalar aytgan azonday, yorg'ichog'im.

Boy qornining kattaligi, yorg'ichog'im,

Ma'arakadagi qozonday, yorg'ichog'im.

Fan va texnika taraqqiyoti tufayli yorg'ichoq hamda u bilan bog'liq qo'shiqlar hozir saqlanib qolmagan.

Chorvachilik bilan bog'liq mehnat qo'shiqlari

O'rta Osiyo xalqlari, jumladan, o'zbeklar juda qadim zamonlardan chorvachilik bilan shug'ullangan. O'zbeklar hayotida dehqonchilik qanday o'rin tutgan bo'lsa, chorvachilik ham shunday o'rin egallagan. O'zbek xalq og'zaki poetik ijodida, asosan, sog'im qo'shiqlari saqlanib qolgan. Xalq o'rtasida bu qo'shiqlar sog'iladigan hayvonning turiga qarab «ho'sh-ho'sh», «turey-turey», «churey-churey», «chiriya-chiriya» kabi nomlar bilan yuritiladi.

«Ho'sh-ho'sh»lar. Sog'im qo'shiqlarining bu turi sigir sog'ish paytida ijro etilgan. Uning asosiy vazifasi ravon va tekis ohangda cho'zib aytiladigan qo'shiq ritmi orqali sog'ilayotgan sigirni tinchlantirish, uni iydirish va ko'proq sut sog'ib olishdan iborat. Shuning uchun «ho'sh-ho'sh» qo'shiqlarida chorvador yoki dehqoning suyanchig'i bo'lmish sigirning barcha a'zolarini, xatti-harakatini, yemishini, xususiyatlarini vasf etish motivlari yetakchilik qiladi:


Ho'shim, molim-govmishim, ho'sh-ho'sh,

Emchaklaring sovmishim, ho'sh-ho'sh.

Oralab yeding o'tingni, ho'sh-ho'sh,

Iyiblar bergin sutingni, ho'sh-ho'sh.

Sog'ish paytida sigir ba'zan bezovtalanadi yoki buzoqchaga ilinib sut bermay qo'yadi. Shunday paytda sog'uvchi buzoqni si-gir oldiga olib kelib emishga qo'yadi. Mana shundan keyin sigir iyib ketib, sutini tortmay qo'yadi. Paytdan foydalanib sog'uvchi buzoqchani tortib qo'yib, sigirni maqtab, past ovozda qo'shiq aytib sog'ishda davom etadi:



Soy yoqalab o‘tlagan, ho‘sh-ho‘sh,

Bolasini yo‘qlagan, ho‘sh-ho‘sh.

Biri o‘lsa, jonivor, ho‘sh-ho‘m,

Bo‘kirishib yig‘lagan, ho‘sh-ho‘sh.

«Ho‘sh-ho‘sh» qo‘shiqlarining ayrim namunalarda an‘ana-viy motivlardan chekinish hollari ham ko‘zga tashlanadi. Ularda oshiqning tong mahali sigir sog‘ayotgan ma‘shuqaning mehnatidan zavqlanishi va sigirga qarata «iyib sut ber» deya qilgag‘r istaklari yetakchilik qiladi:

Hulkar tarozi og‘ar, ho‘sh-ho‘sh,

Sevganim sigir sog‘ar, ho‘sh-ho‘sh.

Sigir sog‘ar iydrib, ho‘sh-ho‘sh,

Sochini yerga tiydirib, ho‘sh-ho‘sh.

Bunday motivlar «ho‘sh-ho‘sh» qo‘shiqlariga keyin kirib kelgan bo‘lib, ular mazkur qo‘shiqlarning g‘oyaviy-badiiy xususiyatlarini belgilay olmaydilar.

«Turey-turey» qo‘shiqlari. Bu qo‘shiqlar ona qo‘ylarni sog‘ish-yoki emizishda ijro etiladi. Shuning uchun ham ularda sovliqni iydrib motivlari yetakchilik qiladi:

Esli molim-oqilim, turey-turey,

Yelkamdagi kokilim, turey-turey.

Shuncha molning ichida, turey-turey,

Bog‘da ochilgan gulim, turey-turey.

Qorako‘lchilikda qo‘zi uch-to‘rt kunlik vaqtida, ya‘ni barraligida so‘yiladi. Natijada, ona qo‘ylar sog‘iladi. Sog‘ish paytida aytiladigan qo‘shiqlarda ona qo‘yning o‘z bolasini qidirishi, uni izlab ma‘rashiga hamdardlik bildirish motivlari katta o‘rin egallaydi.

Tovlarda bor quv olma, turey-turey, :

Sovun bo‘lgin suv olma, turey-turey.

Bolangning yo‘qligini, turey-turey,

Jonvor, ko‘nglingga olma, turey-turey.

Qo‘ylar o‘z bolasining hidini yaxshi ajratishadi. Shuning uchun yangi tug‘ilgan qo‘ziga boshqa hayvonning hidi urib qolsa, ona qo‘y o‘z bolasini emizmay qo‘yadi. Shunda sog‘uvchi «agar bo-langni olmasang, seni bozorga chiqarib sotaman, itlarga emizaman, o‘zingni so‘yib tashlayman» deb sovliqqa do‘q-po‘pisa qiladi:.


Qo‘y ichida qorasan, turey-turey,

Aqllisan-donosan, turey-turey

Agar bolang olmasang, turey-turey,

Bozorlarga borasan, turey-turey.

Bolaginang oqqina, turey-turey,



Uyqulari soqqina, turey-turey.
Agar bolang olmasang, turey-turey,
Sag'irdir bu boqqina, turey-turey.

Xullas, «turey-turey» qo'shiqlari hozir juda kam ijro etiladi. Ular Qashqadaryo, Surxondaryo oblastlarining chorvador rayonlaridagina saqlanib qolgan, xolos.

Churiyalar. Sog'im qo'shiqlarining bu turi echkilarni sog'ish yoki uloqlarni emizish paytida aytiladi. Binobarin, ularda echkini iydirish motivi yetakchshgak qiladi. Churiyalarda uloq yoxud echkinging xarakterli biror belgisi – soqoli, shoxi yoki qashqasi kabilar maqtaladi va shu orqali ular sog'ish paytida tinchlanishga da'vat etiladi:

Shoxlaring bor bir tutam-a, churiya-churiya,
Minora qushlar qo'nar-a, churiya-churiya.
Bolang olib iskasamg-a, churiya-churiya,
Kuyingan yuraging qonar-a, churiya-churiya.



Churiya qo'shiqlarining ayrim iamunalarida sof ishqiy motivlar kuylanib, har bir misradan so'ng faqat «churiya» so'zi takrorlanib keladi. Ular mazmun jihatidan mehnatning bu turi bilan hech qanday bog'lanishga ega bo'lmasalar ham, biroq ohang e'tibori bilan sog'im jarayonga ko'mak beradi:

Oq yuzginang qorday bo'lib, churiya-churiya,
Uydan chiqsang oyday bo'lib, churiya-churiya.
Zulfakkinang, eshilibdi, churiya-churiya,
Cho'pon eshgan chilvirday bo'p, churiya-churiya.

Xulosa qilib aytganda, churiyalar bir oz cho'ziqroq aytilishi hisobga olinmasa, o'z funksiyalari, mazmuni va g'oyaviy yo'nalishi bilan sog'im qo'shiqlarining boshqa turlaridan farqlanmaydilar.

Hunarmandchilik bilan aloqador mehnat qo'shiqlari.

Hunarmandchilik dehqonchilik va chorvachilik qadar qadimiy tarixga ega emas. Chunki u ibtidoiy jamoa tuzumining yemirilish davrida yuzaga keldi. Darhaqiqat, bu davrda ovchilik hamda boshqa mehnat qurollarini yasashga mutaxassislashgan ayrim shaxslar bevosita hunarmandchilikning paydo bo'lishiga sabab bo'ldilar. Keyinchalik shahar hayotining taraqqiy etishi hunarmandchilik mahsulotini sotish bilan aloqador boshqa bir mehnat turi savdo-sotiqni keltirib chiqardi, lekin mehnatning bu turi bilan aloqador qo'shiqlar yozib olinmagan.



O‘zbek xalq hunarmandchilik qo‘shiqlari orasida urchuq, charx, o‘rmak, kashta tikish, to‘tikish, gilam to‘qish, bo‘z to‘qish bilai bog‘liq qo‘shiqlar asosiy o‘rin egallaydi. Ip yigirish, kashta, to‘n tikish, gilam to‘qish kabi mehnat turlari asosan ayollarga xos.

Do‘kon uyga kirsam, tanam qaqshaydi,
Sovuqlarda o‘lmay qolsam yaxshiydi.
Qarisi tillaga ketsa yaxshiydi,
Shunday mening bo‘zim arzon ketarmi.

Bo‘zchi qo‘shiqlarining ayrim namunalari to‘quvchining o‘z mehnati samarasidan quvonchi, dastgohidan mohirona foydalana olish malakasidan ko‘ngli to‘lishi ham zavq bilan kuylangan. Bunday to‘rtliklarda bo‘zchining o‘z dastgohiga, uning har bir murvatiga, ayniqsa mokiga murojaat qilib, uni ishning to‘xtovsiz davom ettirishga da‘vat qiladi:



G‘o‘ladan ilgari dastgoh,
Poshpurtlarni urdim pastga,
Siring aytma yoru do‘stga,
Utgin, qora mokim endi.
G‘arg‘ara undan yuqori,
Sinacho‘p uning no‘kori.
Hay-hay ustamning do‘koni,
O‘tgin, qora mokim endi.

Yengil sanoat, ayniqsa to‘qimachilik sanoatining rivojlanishi, butun texnik jaryonning avtomatlashtirilishi oddiy to‘qish dastgohlarini siqib chiqardi. Natijada, bo‘zchilar qo‘shiqlari ham asta-sekinlik bilan unutildi.

O‘rmak qo‘shiqlari. O‘zbeklar o‘rtasida o‘rmak o‘rish, ya‘ni gi-lam, sholcha to‘qish keng tarqalgan bo‘lib, ana shu mehnat jarayonida ijro etilgan qo‘shiqlar o‘rmak qo‘shiqlari deb yuritiladi. Gilam yoki sholcha to‘qish bo‘z to‘qishdan ham og‘ir, mashaqqatli bo‘lib, u kishidan katta sabot va g‘ayrat talab etadi. Shuning uchun o‘rmak qo‘shiqlarida to‘quvchilarga g‘ayrat tilash, ularni tezroq ishlashga da‘vat etish motivlari ko‘p uchraydi:

O‘rmagimni to‘qiymai,
Kecha-kunduz to‘qiyman.
Qachon tamom bo‘ladi,
Deb ashula to‘qiyman.

Ilgari tuya junidan to‘qilgan matolar mahalliy bozorlarda qimmat baholarda sotilgan. O‘rmak atamasi dastlab ana shunday materiallar to‘qilishiga nisbatan qo‘llanilgan bo‘lsa ham, keyinchalik bu atama asosan gilam, sholcha to‘qishga nisbatan qo‘llana boshladi.



Kashta qo‘shiq-lari. O‘rta Osiyo xalqlari, xususan, o‘zbek xalqi juda qadim zamonlardan kashta tikish san’ati bilan mashhur. Shuning uchun o‘zbeklar o‘rtasida kashtaning bosma, jimalay, sanama, ilma kabi turlari yuzaga kelganki, ularning har biri kashtachidan alohida mehnat va mahorat talab etadi.

Kashta tikishni har bir qiz yaxshi bilishi, o‘z sepi uchun zarur kashtalarni tikishi shart bo‘lgan. Binobarin, kashtaning turiga qarab qizning qandayligiga ham baho berishgan va bu narsa kashta qo‘shiq-larida o‘z ifodasini topgan:

Bosma tikkan botir qiz,
Jimalay tikkan chevar qiz
Sanama tikkan sardor qiz,
Ilma tikkan ilgir qiz.



Shundan so‘ng kashtaning u yoki bu turiga xarakteristika berilib, ularni tikishda sarflangan mehnat vasf etiladi:

Bosma tikar botirib,
Issiq suvga qotirib.
Shuning uchun botir qiz,
El ko‘rganda shoshirib.
Jimalayni tepib tikar,
Ko‘z nurini selday to‘kar.
Guli tekis bo‘p chiqmasa,
Ko‘rgan kishi boplab so‘kar.

Feodalizm sharoitida boy va amaldorlar uy bekalaridan, «cho‘rilardan kashta tikishda ham foydalanganlar. Shu sababli kashta qo‘shiq-larining ayrim namunalarida kashtado‘zlarning rahmsiz boylar tomonidan shafqatsiz ekspluatatsiya qilinishi qoralangan:

Kashta tiktiradi boy,
Kashta guliga gadoy.
Kecha-kunduz tik deydi,
Nega yuribdi o‘lmay?

Xullas, o‘zbek xalq mehnat qo‘shiq-lari juda boy va janr e‘tibori bilan rang-barang bo‘lib, ular mehnat jarayonlarining mexanizatsiyalashishi va avtomatlashtirilishi, mehnat qurollarining tabiatida yuz bergan o‘zgarishlar, muayyap mehnat turining butunlay yo‘qolishi bilan bog‘liq holda asta-sekin yo‘qolib bormoqda. Jonli ijroda qo‘llanmaslik, qo‘shiqni biladigan keksa avlodning kamayib borishi tufayli ularning aksariyati butunlay unutilib ketmoqda. Shu boisdan mehnat qo‘shiq-larini to‘plash va g‘oyaviy-badiiy jihatdan tadqiq etish katta ilmiy, amaliy ahamiyat kasb etadi.



Lirik qo‘shiqlar. Lirik qo‘shiq atamasi shartli ravishda xalq qo‘shiqlarining ma’lum turiga - ishq-muhabbat mavzuida yaratilgan, bir ki shi yoki bir necha kishi tomonidan ijro etiluvchi mustaqil to‘rtliklardan iborat og‘zaki she’riy asarlarga nisbatan qo‘llanadi.

Real voqelikni shaxsning kechinmalari orqali aks ettiruv-chi, sevgi va vafo, hijron va sog‘inch, alam va o‘kinch, kishilar qalbidagi o‘tli dard tufayli vujudga kelgan, faqat kuylash. uchui yaratilgan mustaqil to‘rtliklar lirik qo‘shiq deyiladi.

Lirik qo‘shiq – xalq og‘zaki poeziyasining mustaqil janri.. Uning epik poeziyadan farqli xususiyati shundaki, lirik qo‘shiq-da kishi qalbida tug‘ilgan his-tuyg‘ular muayyan obraz va pred-metlar tasviri orqali aniq shaklga kiradp va konkretlashadi. Shuning uchun lirik qo‘shiqlarda xalqning nozik his-tuygulari, kechinma va orzulari butun tarovati hamda oqilligi bilan aks etadi. Chunki go‘zallikning o‘zida she’riyat va musiqa mujassam-lashganidek, har qanday haqiqiy she’riyat va musiqada ham go‘zallik mavjud. N. A. Dobrolyubov ta’biri bilan aytganda, ha-qiqiy yuksak poeziya ana shu uch asos - go‘zallik, ezigulik va oqilonalikning to‘la mujassamlashuvidan tarkib topadi. Demak, lirik qo‘shiqlarning asosini dardnok mazmun, dono fikr va maftunkor musiqaviylik tashkil etadi.



Xalq lirik qo‘shiqlari yozma adabiyotdagi lirik she’rlarga ko‘pgina jihatlari, xususan, voqelikni konkret shaxs kechinma-lari orqali aks ettirishi bilan yaqin turadi. Biroq yezma adabiy lirik she’rlardagi kechinmalar o‘ta individual xarakter kasb etsa, og‘zaki lirik qo‘shiqlardagi kechinmalar esa umum-lashgan – kollektiv kechinmalari bilan uyg‘unlashgan holda ifodalanadi.

Lirik qo‘shiqlarning mustaqil janr sifatidagi muhim xu-suyeiyatlaridan biri ularning istalgai joyda, istalgan shaxs tomonidan ijro etilishi hisoblanadi. Masalan, sadoqatli sevgi yoki bevafo yor haqidagi qo‘shiqni ish paytida ham, safar cho-g‘ida ham, dam olganda yoki to‘y marosimida ham ijro etish mum-kin. Demak, lirik xalq qo‘shiqlarining maishiy vaziyat, maro-sim yoki boshqa biror joy bilan bog‘liqligi yo‘q.

Lirik qo‘shiqlar odatda xalq o‘rtasida tekstni yaxshi biluvchi, hofizasi kuchli, yoqimli ovozga ega bo‘lgan shaxslar tomoni-dan ijro etiladi. Bunday professional ijrochilar xalq o‘rta-sida qo‘shiqchi, ashulachi yoki hofiz deb yuritiladi. Biroq bu narsa lirik qo‘shiqlarning ijrosi faqat professional qo‘shiq-chilar bilan bog‘liq degani emas. Lirik qo‘pgaqni istalgan shaxs,. istalgan joy yoki vaziyatda ijro etishi mumkin.

Lirik qo‘shiqlar badiiy-tasviriy vosita va usullarining rang-barangligi, ramzlarga boyligi bilan epik yok-i marosim loeziyasidan farqlanib turadi. Bu narsa lirik qo‘shiqlarda shaxsiy kechinmalarni jonli, konkret ifodalash ehtiyojidan kelib chiqqan.

O‘zbek lirik qo‘shiqlarida ishq-muhabbat mavzui yetakchi o‘rin egallaydi. Ushbu mavzuda yaratilgan qo‘shiqlarda chin muhabbat- ni ulug‘lash, yorga sadoqatli bo‘lish, mahbubaga intizorlik motivlari tarannum etiladi:



Havoni bulut bosdi,

Oyni ko'rmasam bo'lmas.

Yuraklarni g'am bosdi,

Yerni ko'rmasam bo'lmas.

Osmonni bulut qoplagan tunlarda kishi oyni ko'rishga mush-toq bo'lganidek, ko'ngilni g'am-anduh kemirgan kezlarda oshiq o'z ma'shuqasini qo'msaydi. Tabiat lavhalari bilan lirik qah-ramon kechinmalarini qiyoslash, ya'ni jonli, nozik psixologik parallelizmlar qo'llash kishi qalbidagi ruhiy iztiroblarni konkret obrazlar sifatida shakllantirishga ko'mak bergan.

Har bir kishi o'zini biror narsa yoki mashg'ulot bilan ovuntirib yashaydi. Masalan, yosh bolaning yog'och otga minib, o'zini ovutish detalini oling. Ular uchun ana shu ovunchoqdan o'zga narsa yo'q. Mana shu oddiy hayotiy detal oshiqning o'z ma'shu-qasiga bo'lgan intilishiga qiyoslansa, lirik qahramon kechinmalarining konkret jonlanishiga, obraz sifatida shakllanishiga olib keladi. Chunki bunday qiyos oshufta yurakning bedavo dardiga malham izlashi, yerini eslab o'zini ovuntirishini konkret ifodalashga imkon beradi:

Yosh bolalar o'ynaydir,

Tol yogochdan ot qilib.

Oshiq yigit yig'laydir

Suyganini yod qilib.

Lirik qo'shiqlarda bevafo yor iztirobi, sog'inch azobi aniq hayotiy lavhalarda tasvirlangan. Bunday tasvirlarning hayo-tiyligi, realizmi juda ko'p jihatlarda ko'zga tashlanadi. Ma-salan, beva.fo o'zi tark etgan yordan qochishga, unga qorasini ko'r-satmaslikka intiladi. Biroq u o'zini olib qochishga qancha urin-sa, oshiqda uni ko'rishga bo'lgan ishtiyoq shuncha kuchayadi. Nogahon oshiqning ko'zi bevafo yorga tushib qolsa, oshuftaligi, dilxun-ligi yana ortadi; asta-sekin unutilayotgan azobu qiynoqlar yana jonlanadi. Mana shu nozik ruhiy holat va kechinmalar quyida-gi to'rtlikda to'laqonli ifodalangan:


Yor, tashlab ketding meni,

Hardamxayol etding meni.

Bo'ylaring bir ko'rsatib,

Ko'rmakka zor etding meni.

Odatda, xalq qo'shiqlari haqida fikr yuritilganda og'zaki lirikada poetik mazmun juda sodda va lo'nda bayon etiladi, deyiladi. Bu – asosan to'g'ri hukm. Biroq o'zbek xalq lirik qo'shiqlari orasida shunday namunalar ham borki, ularda oshiq-lik bobida o'zini tanho hisoblash, o'z sevgisi yo'lida jonini, hayotini fido qilishga tayyorlik kayfiyati juda nozik, pardali bir tarzda



iftdalangan. Bunday qo‘shiqlarni tahlil etish tinglovchidan chuqur mulohaza, mantiqiy dalillarni talab etadi. Masalan, quyidagi to‘rtlikni oling:

Qoshlaring qarosiga qotgin meni,
Oshiqlar bozorida sotgin meni.
Oshiqlar bozorida olmasalar,
Kipriging o‘qi bilan otgin meni.



Mazkur to‘rtlikning birinchi misrasi butun to‘rtlikning poetik mazmunini, qo‘shiq mohiyatini ochib berishda kalitlik va-zifasini o‘taydi. Chunki bu misrani ikki ma’noda izohlash mumkin. Birinchisi – oshiq o‘z mahbubasiga murojaatetib: ishqing o‘tida meni shafqatsiz kuydirgin va yonib ko‘mirga aylangan jismimdan qoshingning qoraligini kuchaytirishda bo‘yoq vazifasida foydalan, demoqchi. Ikkinchi talqin esa shundayki, oshiq o‘z mahbubasiga murojaat etib, men senga shu qadar dilbasta bo‘lganmapki, bir lahza ham sendan ayrila olmayman, shuning uchun meni qoshingning qorasiga qotgin, toki men doim sen bilan birga bo‘lay, demoqchi.

Keltirilgan ikki xil talqindan birinchisi haqiqatga yaqin. Chunki xalq ijodida, shuningdek, Sharq klassik she’riyatida oshiq – mahbus, ma’shuqa –hokimi mutlaq; oshiq – xokisor, mahbuba – shafqatsiz malak.

Demak, klassik va og‘zaki poeziyada ham mahbuba ishq bobida tengsiz zulmkor, oshiq esa itoatkor qul sifatida talqin eti-ladi. Mana shu mantiqdan kelib chiqilsa, oshiqning beaded ishq; o‘tida kuyib jizg‘anak bo‘lishi aniq. Mahbuba esa o‘z rahmsizligi tufayli uning kuygan jasadidan qoshiing qoraligini orttirishda bo‘yoq sifatida foydalanishga ham tayyor. Binobarin, oshiqning mahbuba qoshining qoraligiga qotilishi haqidagi; istagi asosida an’anaviy poetik mantiq – ishq o‘tida kuyib ko‘-mirga aylanish istagi yotibdi.

Qo‘shiqning ikkinchi misrasi birinchi misrada ifodalangan mazmunni quvvatlash uchun xizmat qiladi. Unda oshiqning ishq bobida tanho ekanligi haqidagi da’vosi bayon etilgan. Ishq o‘tida kuyib ma’shuqa qoshiing qoraligiga qotilishga rozi bo‘lgan oshiq, albatta, o‘zini muhabbat bobida tanho hisoblaydi. Shuning uchun ham mahbuba oshiqni ishq bobida tanholigiga ishonmagan taqdirda oshiqlar bozoriga olib borib narxini bilishni taklif qilmoqda. Chunki bozorda faqat arziydngan matoga xaridor yopishadi. Oshiq o‘zini ishqda tanho hisoblar ekan, demak, oshiqlar bozorida o‘zishshg yaxshi narxda sotilishiga shubha qilmaydi.

To‘rtlikning uchinchi va to‘rtinchi misralari esa yuqoridagi mulohazalarning to‘g‘riligini yana bir bor tasdiqlaydi. Ularda aytilishicha, agar oshiqlar bozorida uning xaridori bo‘lmasa, oshiq yolg‘on va u o‘limga mahkum. Bu o‘lim esa mahbubaning nasib etmas g‘amzalaridan



keladi. Shuning uchun ham oshiq yori-ga murojaat etib, oshiqlar bozorida meni hech kimga
olmasa, ya'ni: men haqiqiy oshqlikda tanho bo'lmasam, kipriging o'qi bilan otib o'ldirgin,
deydi.

Xullas, ishq bobida tanholik, jon fidolik va oshuftalikning bundan nozik hamda latif tasviri
bo'lmasa kerak. Bunga o'xshash to'rtliklar lirik qo'shiqlarning mulohazatalab va
bo'yoqdorligini ko'rsatadi.

O'zbek an'anaviy lirik qo'shiqlarida mungli ohang, zamona-dan nolish, zamona zayli
tufayli visolga erisha olmagan oshiq-ma'shuqalarning oh-zori kuchli yangraydi. Xotin-qizlarnins
zulmatda, jaholatda hayot kechirishi, o'z sevgisi bilan turmush-ga chiqqa olmasligi xalq
qo'shiqlaridagi g'am-hasrat nidolari-ning kelib chiqishiga sabab bo'lgan:



Suv oqar tosh ustida,
Sallachang qosh ustida.
Suyganim esga tushsa,
Yig'layman osh ustida.

Zamona nosozligi, johil ota-onalarning bag'ritoshligi ko'pincha xotin-qizlarning taqdirga
tan berishga, o'z sevgilaridan voz kechishga olib kelgan. Oz bo'lsa-da, qo'shiqlarda tushkunlik
kayfiyatini ifodalovchi to'rtliklarning mavjudligi ana shundan:

Oq olma, qizil olma,
Olmaga nazar solma.
Otam senga bermaydi,
O'z bilganingdan qolma.

Sotsial tengsizlik sevgiday nozik va noyob tuyg'uni toptab, hamma narsani pul, mol-dunyo
bilan sotib olishga majbur etgan. Shu bois ko'pgina ota-onalar yo nochorlikdan, yo muhtojlikdan
qutilish maqsadida o'zlarining o'n gulidan bir guli ochilmagan qizlarini qari chollarga
turmushga uzatganlar. Bunday nohaqlik lirik qo'shiqlarda juda ta'sirchan ifodalangan:

Tunnukda bir oy ko'rdim,
Bir oq qashqa toy ko'rdim.
Un besh yashar chog'imda,
Sakson yashar chol ko'rdim.
Yoki:
Ot boyladim xariga,
Xaridan ham nariga.
Otam meni sotdilar
O'zlaridan qariga.



Yuqoridagi kabi hasrat va mungli qo‘shiqlar xalq lirikasida belgilovchi rol o‘ynamaydi. Aksincha, o‘z sevgisiga sodiq qolish, yor uchun jonini fido qilish, ishq yo‘lida har qanday jabru jafolarga bardosh berish motivlari lirik qo‘shiqlarda leytmotivlik vazifasini o‘taydi:

Suv kelar guldur-guldur,
Suyganim qizil guldur.
Suyganim topilmasa,
O‘lganim o‘shal kundir.

O‘zbek xalq lirik qo‘shiqlari o‘zlarining badiiylik jihati bilan diqqatga sazovor. Qo‘shiqlardagi ritmik jihatdan mis-ralararo uyg‘unlik kasb etishi, o‘ynoqi vazn va to‘liq qofiyalar, hayratomuz ramzlar mazmuni ta’sirchan ifodalashga xizmat qiladi.

Xalq qo‘shiqlarining vazn xususiyatlariga diqqat qilinsa, aksariyat qo‘shiqlar 7-8 bo‘g‘inli barmoq vaznida yaratilganli-gini ko‘rish mumkin. Chunki bunday vaznlar yengil hamda o‘ynoqiligi, kuylashga qulayligi bilan alohida ajralib turadi-lar. Qolaversa, bunday yengil vaznlar tekstning xotirada saqlanib qolishiga ham ko‘mak beradi. Masalan, quyidagi to‘rtlik yetti bo‘g‘inli barmoqda yaratilgan bo‘lib, qo‘shiqning har bir misrasi bir nafas bilan ijro etilishga mo‘ljallangan. Misralar o‘rtasidagi ohangdoshlik esa to‘liq qofiya va takrorlar vositasida ta’minlangan:



Boqqa kirmang bodom bor,
Uyga kirmang odam bor.
Odam bo‘lsa mayliga,
Oppoq soqol dadam bor.

Xalq qo‘shiqlaridagi ko‘pgina to‘rtliklar aruz sistemasiga ham tushadi. Bu vaznlar, Alisher Navoiy to‘g‘ri ko‘rsatganidek, ramali musammani mahzuf (foilotup, foilotun, foilotun, foilun) vazniga to‘g‘ri keladi:

Yor agar o‘ltirsalar, avval qo‘limni bog‘lasin,
Do‘stlarim g‘amgin bo‘lib, dushmanlarni shod aylasin.
Yorginam, ochgin chiroy, ishqingda men qandoq qilay,
Sen yotib oromni olgin, men yurib yulduz sanay.

Aruz sistemasidagi bu o‘ynoqi vaznda qisqa va cho‘ziq unli tovushlarning tabiiy uyg‘unlashuvi orqali mos kelishi qo‘shiq mazmunini ta’sirchan, ohangdor ifodalashga imkon bergan.

Lirik qo‘shiqlarni go‘zal ramzlarsiz tasavvur qilish mumkin emas. Chunki murakkab va mavhum tushunchalarni, nozik ke-chinma va holatlarni barchaga tushunarli an’anaviy obrazlar –



ramzlar orqali lo'nda bayon etish qo'shiqlarning ohangdorligi, ta'sirchanligini ta'minlash bilan bir qatorda ulardagi obrazlilikni oshirishga ham xizmat qiladi. Lirik qo'shiqlarning mazmuniy chuqurligi va boyligini ramzlarda ifodalangan ma'no tovlanishlarini aniqlamay turib to'g'ri anglash mumkin emas. Chunki lirik qo'shiqlardagi ramzlar shu qo'shiqlarning haqiqiy mazmunini to'g'ri anglashning kaliti vazifasini o'taydi. Misol uchun o'zbek lirik qo'shiqlarida kepg qo'llaniladigan «olma» ramzini oliig.

Olma lirik qo'shiqlarda sevgi, yor tanlash ramzi sanaladi. «Olma guli» obrazi esa yolg'on, o'tkinchi sevgining ramzi bo'lib keladi. Ramzning bunday ma'no anglatishi olma gulining tez to'kilib kstishi va mustahkam emasligiga asoslangan. Ramz va o'tkinchi sevgi tushunchalari o'rtasidagi assotsiativ aloqa quyidagi to'rtlikning ma'nosini to'g'ri anglab olishga xizmat qilgan:

Olma guli gul emas,
Taqsam chakkamda turmas.
O'zganing yori yor emas,
Birpas yoningda turmas.


Darhaqiqat, olma guli gul bo'lib uzoq turolmagandek, boshqaning yori ham hech qachon yoningda dildorlik qilib tura olmay-di, degan g'oya ramziy obraz (olma guli) va hayotiy obraz (o'zga-ning yori)ping taqqoslanuvi orqali nozik bayon etilgan.

Lirik qo'shiqlarda olma, tol, behi, shaftoli, bodom, gul, anor kabi daraxt va o'simliklardan; g'oz, o'rdak, qaldirg'och, turna, kaptar kabi qushlardan; ro'mol, tamaki kabi narsalardai; tog', ko'l, bozor, mozor kabi tabiat ko'rinishlari va joylardan; oq, qora, qizil, sariq, ko'k kabi ranglardan; xol, qosh, gajak kabi inson qiyofasiga xos detallardan iborat ramzlar ko'p uchraydi va ularning barchasi qo'shiqlar mazmunini, ular asosida yotgan g'oyalarni izohlashning muhim vositasi hisoblanadi.

Epitetsiz ta'sirchan lirik qo'shiqning o'zi ham yo'q. Binobarin, dil dardiga malham bo'la oladigan har qanday qo'shiq chi-roy;sh epitetlarsiz o'z shukuhini, ta'sirchanligini yo'qotadi. Chunki epitet tasvirlanayotgan obraz yoki predmetning muhim va barqaror xususiyatini aniq ko'rsatish, uning sifatlarini ta'riflash uchun xizmat qiladi:

Yorim keladi yashnab,
Zar kokilini tashlab.
Xipcha belini ushlab,
Shakar labini tishlab.

Yorning ta'rifu tavsifini, alohidaligi va dilbarligini zar, xincha, shakar epitetlarsiz tasvirlab bo'lmaydi. Darhaqiqat, yorning kokili shunchaki oddiy kokil emas, balki zar ko-kil;



beli esa beo‘xshov emas, balki xipcha, demak, oshiqning yura-giga o‘t soluvchi bel; labi esa shakardek shirii. Keltirilgan bu to‘rtlikdagi epitetlar yorning tashqi tasviri, dilbar va yoqimlilikini aniq tasvirlashga imkon bergan.

Xullas, o‘zbek xalq lirik qo‘shiqlari o‘xshatish, istiora (me-tafora), mubolag‘a, sifatlash, kichraytirish, jonlantirish ham-da ramzlarga juda boy bo‘lib, ular qo‘shiqlarning g‘oyaviy-badiiy asoslarini to‘g‘ri yoritishda belgilovchi rol o‘ynaydilar.

Tarixiy qo‘shiqlar

O‘zbek folklorida tarixiy qo‘shiqlar juda qadim zamon-lardan mavjud. Uning ilk namunalari Mahmud Qoshg‘ariynint «Devonu lug‘otit turk» asari orqali bizgacha yetib kelgan.

Tarixiy qo‘shiqlarning janr xususiyatlaridan eng muhimi asarning tarixiy konkret shaxs yoki tarixiy voqealarga asoslanishi, ularning tarixan konkretlikda she‘riy shaklda aks ettirishi hisoblanadi. Demak, konkret tarixiy shaxs yoki voqealar tasvirlangan she‘riy asar tarixiy qo‘shiq sanaladi.



Uzoq tarixiy taraqqiyot bosqichlarini bosib o‘tish natija-sida tarixiy qo‘shiqlarning bir nechta tiplari vujudga kelgan. Birinchi tipi izchil syujetga ega bo‘lmagan, shaklan lirik qo‘shiqlarga yaqin bo‘lgan tarixiy qo‘shiqlardan iborat. Qo‘shiqlarning bu tipida izchil syujetlilik bo‘lmasa ham, biroq asar-da konkret tarixiy shaxs faoliyati yoki real tarixiy voqea tasvirlanganligi sababli barcha to‘rtliklar muayyan kompozitsion izchilikda birikadilar.

O‘zbek xalq ijodida tarixiy qo‘shiqlarning mazkur tipiga oid asarlar talaygina yaratilgan. «Buvishoyga», «Zebijon», «Tursunoy marsiyasi», «Mardikor qo‘shig‘i», «Mashrabxon» kabilar shular jumlasidandir.

Bunday tarixiy qo‘shiqlarning davr voqealariga hozirja-vobligi, shaklan xalq terma qo‘shiqlariga yaqinligi va omma-viyliigi ularning ko‘plab yaratilishlariga sabab bo‘ladi.

Tarixiy qo‘shiqlarning ikkinchi tipi faqat irofessional baxshilar (dostonchilar) tomonidan yaratilgan syujetli asar-lardan iborat. Shu bois bu tipga mansub tarixiy qo‘shiqlar iz-chil, qisqa va dramatik syujetga egaligi bilan xalq qo‘shiqlaridan ko‘ra xalq eposiga yaqinroq turadi. Islom shoir Nazar o‘g‘lining «Tinchlik jarchisi», Xolyor Abdukurim o‘g‘lining «Amir qochdi», Umir shoir Safar o‘g‘lining «Qoraqum», «Dasta-gul» kabi asarlari shular jumlasidandir.

Bu tipdagi tarixiy qo‘shiqlarda epik fon bilan lirik ke-chinma uyg‘unlashib, asar qahramonlari qiyofalarini to‘laroq yorqinlashtiradi. Biroq tarixiy qo‘shiqlarning avtorlar tomonidan yaratilgan syujetli tipida traditsion xalq eposiga xos badiiy tasvir usullari hamda vositalaridan unumli foydalanilgan. Binobarin, tarixiy qo‘shiqlarning mazkur tipi haqida xalq eposi xususida so‘z yuritilganda to‘xtalish o‘rinlidir.



Xullas, o‘zbek xalq qo‘shiq-lari turli-tuman janrlardagi asarlarni o‘z ichiga olgan og‘zaki ijodning poetik bir turkumi bo‘lib, uning tarkibidagi har bir janr o‘z tarixiga, badiiy evolyutsiyasiga ega. Xalq poeziyasi janrlarini kelajakda to‘plash va izchil o‘rganish folklorshunosligimizning muhim vazifasi hisoblanadi.

Termalar



Terma o‘zbek folklorining mustaqil janri bo‘lib, uning yaratilishnda baxshilarning roli nihoyatda kattadir, ko‘pchilik hollarda ular dostonchilarning individual ijodi hisoblana-di. Pandiasihat, odob-axloq, soz va so‘z haqida yaratilgan, ij-timoiy hayotdagi turli hodisalar, shaxs va jonivorlarning ta‘rifi yoki tanqidiga bag‘ishlangan, baxshilar tomonidan kuy-lanadigan 10-12 satrdan 150-200, ba‘zan undan ham ortiq misralargacha bo‘lgan lirik, liro-epik she‘rlarga terma deyiladi. Terma so‘zining ma‘nosi terib, tanlab tuzish demak-dir, ya‘ni pisbiy mustaqillikka ega bo‘lgan, forma va mazmun jihatidan bir-biriga yaqin bandlarni (har bir band 3, 4, 5, 6 va undan ortiq misralardan iborat bo‘lishi mumkin) kompozitsion jihatdan yaxlitlashtirishdir. Baxshilarning o‘zlari ham «Terma shu, terib aytib borasan» deydilar. Ular ba‘zan «Ni-ma aytay?» termasini ikkynchi bir nom bilan «Doston terish» deb yuritadilarki, bu ham yuqoridagi fikrni tasdiqlaydi. Termada ijro davomida ayrim bandlariing qo‘shilishi yoki o‘rin almashishi, ba‘zi bandlar tushib qolishi mumkin. Doston-lardan olib ayrim holda aytilgan parchalar ham terma deb yuritiladi.

Termalar yaratilish jihatidan an‘anaviy va zamonaviy, g‘oyaviy-tematik xususiyatlariga ko‘ra yana qator ichki turlarga bo‘linadi.

Termalarning eng o‘p tarqalgani «Nima aytay?» she‘ridir. Bu termaning uzun-qisqaligi aytuvchining dostonchilik reper-tuari bilan bog‘liq. Shoir doston boshlamasdan oldin auditoriya diqqatini o‘ziga tortish, tinglovchilarda doston eshitishga muayyan kayfiyat tug‘dirish maqsadida terma boshlaydi. Shoir terma aytib turib o‘z repertuarini bayon etadi, muayyan doston va uning qahramoni faoliyatining ayrim shtrixlarini ting-lovchilar yodiga tushiradi.

Masalan:

O‘n beshida oyday to‘lgan,
Olmosini belga solgan.
Go‘ro‘g‘liga xizmat qilgan,
Qirq yigitni girdga olgan,
So‘rab o‘tdi Avaz polvon,



Avazxondan aytayinmi?

Yoki:

Avazning bir yo‘li Gulixiromon,
Shunga ham buyurdi Go‘ro‘g‘li sulton,
Qabul qildi o‘n oltida Avazxon,
Xiromondan aytayinmi, qadrdon?

Termalarning kattagina qismini avtobiografik va biogra-fik asarlar tashkil etadi. Avtobiografik termalaoda («Do‘mbiram», «Dutorim», «Kunlarim») baxshilar do‘mbirasi, dutori, ba‘zan qo‘biziga murojaat etib, ularni bir suhbatdoshday jon-lantirib, hayotlarining ayrim momentlarini, repertuarlarining ba‘zi bir xususiyatlarini bayop etadilar. Masalan, Po‘lkan shoir shunday kuylaydi:

Yangi tor tortayin toringni uzib,
Undan so‘ng so‘ylarsan suyaging qizib,
Odamlar ketmasin majlisni buzib,
Maskov, Nijniy, Qozon, No‘g‘oyini kezib,
Shaharni qidirib yurgan do‘mbiram.



Shoir nazdida uning sozi tovushiga quvvat, majlisga kosa-gul, chopqir bedov, ulfatlarning ko‘nglin oluvchi yordamchidir:

Uch-to‘rt og‘iz maqtab qo‘yay man sani,
Qovurg‘angdan qirib solgan randani,
Xonish qilsam yolg‘iz qo‘ymaysan mani,
Xonishimga yordam bergan dutorim.

Avtobiografik termalar yumoristik momentlarga, hazil-mutoyibaga boyligi bilan ajralib turadi:

Nomard yigit bu majlisga bo‘ylamas,
Avji kelsa Nurman gapni o‘ylamas,
Yorib yoqsam biror choydosh qaynamas,
Senday yog‘och o‘tin bo‘lgan do‘mbiram.

O‘zbek folklorida xalq dostonlari qahramonlarining ti-lidan aytilgan yoki ularning maqtoviga bag‘ishlangan qator ter-malar borki, ularni biografik termalar deyish mumkin. Bu



termalarning xarakterli xususiyati shundaki, bir-biri bilan chambarchas boglangan mustaqil bandlarda qahramon epik bio- grafiyasining asosiy nuqtalari ko‘tarinki uslubda tasvirlanadi. Bunday tasvirda xalqimizdagi mardlik g‘ururi, sadoqat-lilik iftixori, halol mehnat bilan faxrlanish his-tuyg‘usi alanganib turadi. Shunday asarlardan biri keksa Go‘ro‘g‘li tilidan aytiladigan «Kunlarim» termasidir. Bu termi bax-shilarning deyarli hammasi o‘z salohiyatiga yarasha kuylaganlar. Ammo uning eng yaxshi variantlari Ergash shoir va Fozil yo‘l-dosh o‘g‘lidan yozib olingan.

Termada «Go‘ro‘g‘li» turkumiga kiruvchi har bir doston vo-qealariga chiroyli bir ishora bo‘lib, bunda xalqparvar Go‘ro‘g‘li va uning bosib o‘tgan yo‘li tinglovchi ko‘z o‘ngida yaqqol namoyon bo‘ladi. Baxshi nazdida keksaygan Go‘ro‘g‘li o‘z o‘tmishiga nazar tashlar ekan, bu hayot va kurash yo‘li quvonch, shodliklarga ham, hasrat, alamlarga ham to‘ladir. Baxshi «gurkirab-guldirab o‘t-gan» Go‘ro‘g‘lining hasrat va armonlarini tasvirlash orqali o‘tmish jamiyat illatlarini shoirona ko‘rsata bilgan:


Bu gaplarni aytdi Chambilniig shoyi,
Bepilik yonarmi chiroqning moyi
Qariganda bo‘lib farzand gadoyi,
Bebahra bo‘lib parilar hamroyi,
quruq qolgan kunlarim.

Quloch urib,

Baxshilar kuylab kelgan «Bormi jahonda», «Armoning qol-masin», «Armonim qolmadi», «Go‘ro‘g‘li», «Go‘ro‘g‘libek –zo‘r botir» kabi termalar shu xarakterdagi asarlardir. Rus revolyutsion demokrati N. G. Chernishevskiyning ta‘kidlashicha, shoir-lar odamlarni hayot haqidagi olijanob tushuncha va hislarga boshlovchi kishilardir. Ularning asarlarini o‘qir ekanmiz, biz qabih va razil narsadan nafratlanishni, butun ezgu va go‘zal narsalarning maftun etuvchi kuchini tushunishni, barcha olija-nob narsalarni sevishni o‘rganamiz, ularning asarlarini o‘qir ekanmiz, o‘zimiz yaxshiroq, ezguroq, olijanobroq bo‘lib boramiz.

Shu nuqtai nazardan xalq shoirlari termalariga nazar tashlar ekanmiz, chindan ham ularda o‘quvchi va tinglovchi maf-tunkor bir olamga olib kiriladi, chiroyli va ezgu narsalar tashviq qilinadi. «Bulut chaynab, muzni purkkan» Go‘ro‘g‘li va boshqa xalq qahramonlarining go‘zal sifatleri tasvirlanib, ularni tinglovchi va o‘quvchilarga ham taqishga, yuqtirishga bo‘lgan intilish, yanada «yaxshiroq, ezguroq, olijanobroq» bo‘lishga chaqiriq yaqqol sezilib turadi.

O‘zbek folkloridagi avtobiografik va biografik termalar sovet davrida atoqli xalq shoirlari Ergash Jumanbulbul o‘g‘-lining «Tarjimai hol», Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li, Saidmurod Panoh o‘g‘li, Abdulla shoirlarning «Kunlarim» nomli avtobio-grafik liro-epik dostonlarining yaratilishida



muhim ahami-yatga ega bo'ldi. Demak, terma janri shu darajada keng imkoni-yatga egaki, ul- mos mazmun topilsa, shu formadan foydalanib yirik epik asarlar yaratish mumkin ekan. O'zbek baxshilari ijodi buni to'la tasdiqlaydi.

Termalarning aksariyati didaktik xarakterga ega. Dunyo-ning achchiq-chuchugi, pastbalandi, yaxshi-yomonini ko'rgan ijodkor mehnatkash xalq va uning baxshilari shu xil holatlarning musbat va manfiy tomonlari haqida qator asarlar yaratganlar. Bu xil termalarda yaxshilik, adolat, mardlik, chin so'zlik ulug'-langan, pastkashlik, nokaslik, qo'rqqoqlik, ko'rolmaslik va fis-qu fasod qoralangan.

Shu jihatdan qaraganda, Ergash shoir termasidagi yaxshilik va yomonlikni anglash, so'z va suhbat qadriga stish haqidagi quyidagi satrlar g'oyatda ibratlidir:

Har narsadan suxan qimmat, yoronlar,
Yaxshi so'zni kiling hurmat, yoronlar,
Vaqtingizni qadrin bilib o'tkazing,

Baridan shu dam g'animat, yoronlar.

Bu dunyoda shirin, do'stlar, tiriklik,

Uz tengingiz bilan suhbat, yoronlar.

Yaxshiga yonashib odam ayiring,

Har nokasga bo'lmaig ulfat, yoronlar.

Yaxshiman yomonni so'zman biladi,

Tildan chiqar dilda niyat, yoronlar.

Didaktik termalarning xarakterli xususiyati shundaki, bi-rinchi misrada o'rta tashlangan fikr so'nggi misralarda davom ettiriladi. Bunday termalarni o'qir ekansiz, hayotdagi qandaydir umumiy bog'lanish ko'zga tashlanadi.

Baxshilar repertuarida boylar, eshonlar, tekinxo'rlarni ayovsiz savalagan satirik termalar ham tez-tez uchrab tura-di. Jumanbulbul yaratgan mana bu terma shunga yaxshi misol bo'ladi:


Agar tuya bo'lganingda jo'ng bo'laring,

Otdan keyin, eshakman teng bo'laring,

Qantar og'may xarish bo'b ag'nab yotib,

Qarg'a bilan quzg'unga yem bo'laring.

Agar yilqi bo'lganda o'tmas eding,





Bahong qirq besh, ellikka yetmas eding,

Har kim olsa o‘zingni aynib berib,


Chir aylanib ovuldan ketmas eding.

Oshiq-ma’shuqlar to‘g‘risida, yaxshi va yomon xotin, soz va so‘z ta’rifida, turli ish hayvonlari haqida qator termalar yaoa-tilgap. Atoqli turkman shoiri Maxtumquli asarlarining ijodiy ta’sirida bir qator o‘zbek baxshilari (Islom shoir, Umir Safar o‘g‘li, Xorazm baxshilari va boshqalar) o‘rtasida didak-tik yo‘lda termalar yaratish rasm bo‘ldi.



Shox moylar

- Birov: Qo'shga ildam yurmasang
Ko'pchilik: Qo'shga ildam yurmasang
Birov: Uchangga turtib qo'yaman
Ko'pchilik: Uchangga turtib qo'yaman
Birov: Yaxshi yursang shoxingga
Ko'pchilik: Yaxshi yursang shoxingga
Birov: Moylar surtib qo'yaman
Ko'pchilik: Moylar surtib qo'yaman
Birov: Shoxlaring bor shomiyan
Ko'pchilik: Shoxlaring bor shomiyan
Birov: Ko'zlaring bor oynaday
Ko'pchilik: Ko'zlaring bor oynaday
Birov: Sendan bo'lgan bolalar
Ko'pchilik: Sendan bo'lgan bolalar
Birov: To'ti bilan maynaday
Ko'pchilik: To'ti bilan maynaday
Birov: Qo'shni tortgan jonivor
Ko'pchilik: Qo'shni tortgan jonivor
Birov: Tumor taqay shoxingga
Ko'pchilik: Tumor taqay shoxingga
Birov: Saratonda ishlagin
Ko'pchilik: Saratonda ishlagin
Birov: Saratonda ishlagin
Ko'pchilik: Saratonda ishlagin
Birov: Qo'shga qo'shdim qo'sh ho'kiz
Ko'pchilik: Qo'shga qo'shdim qo'sh ho'kiz
Birov: Chuho-chuh, chuho-chuh
Ko'pchilik: Chuho-chuh, chuho-chuh
Birov: O'z ishingni tindirib
Ko'pchilik: Chuho-chuh, chuho-chuh
Birov: Hovuringdan tush ho'kiz
Ko'pchilik: Chuho-chuh, chuho-chuh
Birov: Qora molim qobilim



Ko'pchilik: Chuho-chuh, chuho-chuh
Birov: Qaro yerni qoq yorgan
Ko'pchilik: Chuho-chuh, chuho-chuh
Birov: Mehnatning zo'ridan
Ko'pchilik: Chuho-chuh, chuho-chuh
Birov: Teppasidan shox yorgan
Ko'pchilik: Chuho-chuh, chuho-chuh

Demak, misollardan madaniy'lum bo'ladiki, har qanday yondosh pog'onali (ya'ni yonmayon joylashgan) tovushlar oralig'I sekunda intervalga teng ekan. Mazkur interval o'zbek xalq qo'shiq va kuylarida juda keng qo'llaniladi.

Lola (qo'shiq) sayli qo'shiqlari

O'zbek xalqining uzoq o'tmishi davomida turli marosim va ommaviy tantanalar shakillangan bo'lib, ularning aksariyati ko'hna hayotga taaluqli. Shundaymarosim bayramlardan biri bahor mavsumida o'tkaziladigan "Lola sayli" bilan bog'liq ko'plab qo'shiqlar ijro etilgan bo'lib, ular hozirda ham kuylanib kelinmoqda.



Lola sayli Navro'z bayramining birinchi kuni o'tkazilgan. Bu bayramni an'anaviy o'tishi shunday bo'lgan: mahalliy aholi keng maydonga yig'ilib, yoshlarni lola terimiga kuzatganlar. Terimchilar qir-adrlarga sayr qilishib, quchoq-quchoq lola terishgan. Qo'shiqlar kuylashgan so'ngra terimchilarni belgilangan maydonga qizg'in va tantanavor kutib olish bayrami-marosimi o'tkazilgan. Bunda karnay-surnaylar chalinib, raqslarga tushishgan, yoshlik va go'zallik ramzi lola qo'shiqlarda vasf etilgan.

Lola ayimlari o'zining yorqin kuy-ohanglari va sho'x o'ynoqi doira usullari bilan shodlik tuyg'ularini ifoda etgan.

Musiqa tinglash. "Hey lola" qo'shig'ini tinglang.

Lolachaga ishim bor, hey lola
Kissamda kishmishim bor, hey lola
Kishmish bo'lsa mayliga, hey lola-yo
Qiz bolada ishim bor, hey lola

Tom ustida piyola, hey lola
Ichi to'la gul lola, hey lola
Nari turing bo'z bola, hey lola-yo
Uyaladi qiz bola, hey lola



Lola o'zi qiz bola, hey lola
Qirda o'sgan qiz bola, hey lola
Lolachani ko'rganda, hey lola-yo
Sanab, sanab uz bola, hey lola

Lola!

O'zbek xalq qo'shig'i

Lola lola lolajon,
O'sar joying dalada
Lola lola lolajon,
Chidadingmi dalaga

Jala yog'sa qo'qragan,
Sellar oqsa qo'rqmagin
Chiroyingni ochay deb
Qizlar taqsa qo'rqmagin

Lola,lola,lolajon
O'sar joying dalada 2 marta
Lola,lola,lolajon
Chidadingmi dalaga 2 marta



Yur sayilga boraylik
Lolalarni ko'raylik 2 marta
Qo'chog'imiz to'ldirib
Lola gullar teraylik 2 marta

Naqorat

Yerni koni lolajon
Yerni joni lolajon 2 marta
Lola sayliga kelib,
Ko'rdik seni lolajon.



Musiqa savodi. Pauzalar haqida bilimingizni mustahkamlash. Pauza deb musiqada vaqtincha to'xtash, tinish tushuniladi. Pauzalarning davomiyligi xilma-xil bo'lib, ular nota cho'zimplari kabi o'lchaniladi.

Notalar cho'zimi: Pauzalar



Musiqa savodi. Usul. Usul-o'zbek milliy musiqasining muhim ifodaviy vositasi bo'lib, u zarbli cholg'ular (doira nog'ora va boshqalar) da ijro etiladi. Demak, usul zarbi cholg'ularda hosil etiladigan o'zgarmas takroriy ritm tuzilmalaridir.

Usullar vositasida qo'shiqlarga, cholg'u kuyi, raqs kuylari va raqslarga jo'r bo'linadi. Usul odatda ikki tovush asosiga qurilgan bo'ladi. Bu tovushlarni ustozlar "bak" va "bum" deb ataydilar. "Bak" tovushi nisbatan baland bo'lib u doiraning gardishi (chetki qismi) tomon zarb berilishidan hosil bo'lsa "bum" tovushi doiraning o'rta qismidan zarb tovushidan yuzaga keladi va u "bak" tovushiga nisbatan quyi tovush hisoblanadi. Usullarni notalar vositasida ham yozish mumkin. Buning uchun bir chiziqli nota yozuvi tizimidan foydalaniladi. Bunda "bak" tovushi chiziqning ustiga, "bum" esa chiziqning ostki notada yoziladi.





Yana bir tong bor Bobotog' palapon
Unda mullabachcha, hofizi Quron
Tutingan o'glini oti Avazxon
Avazxondan aytaymi bir doston?

Yana bir shahar bor oti Isfaxon
Isfaxondan kelgan erkak Hasanxon
Hasanxon der yorini botir,
Bir dostonim bordir "Gulixiramon"
Ey shulardan aytaymi qadirdon?

Bir dostonim Qo'ng'irotdak Alpomish,
Yo xohlanglar aytayin Kuntug'mishdan
Hammasidan ham bir qiziq dostonim bor
Yo aytayinmi Zulfiyaroy bibishdan

Qaysisini sizlarga maqul bo'ladi
Har qaysisin bir kechadan tinglaysiz
Shoir mardining o'rtalikda uyasi
Xohlasangiz semizini so'yadi



III.2. Folklor etnografik ansambllari

”Shalola” folklor-etnografik ansambili Surxondaryo-Qashqadaryo xalq musiqa an’analarini atroflicha o’rganib ularni qayta tiklayotgan hamda sahna madaniyati orqali targ’ib qilinayotgan ijodiy jamoadir. Ansambl boy repertuarga ega. Xususan ansambl ishtirokchilari mehnat qo’shiqlari (”Mayda-mayda”, ”Xop hayda”) mavsumiy marosim aytimlari (”Lola sayli” ”Navro’z”) qo’shiqlari va turli xil o’yin aytimlarini ishtiyoq va mahorat bilan ijro etadilar. Shunday qo’shiqlarda biri ”Arg’amchi” deb ataladi. Bu qo’shiq turnalar uchib kelishi munosabati bilan kuylangan. Uzoq o’tmishda shunday bo’lganki odamlar turnalarning qay tarzda uchib kelishiga qarab yilni qanday kelishini bashorat etganlar. Masalan turnalar barvaqt uchib kelsa, bahor erta keladi. Agar ular pastlab uchsa bahor kech keladi.

Qashqadaryoning musiqaiy salohiyati yildan-yilga oshib bormoqda. Qashqadaryoning universitetidagi musiqa kafedralari san’at va madaniyat kollejlari bir qancha musiqa maktablari musiqa ilmining amaliy va nazariy masalalariga tegishli bilimlar o’rganilmoqda va targ’ib qilinmoqda. Shu bilan birga barcha teatrdagi yangi-yangi musiqali daramalar sahnalashtirilmoqda. Oliy va o’rta boshlang’ich musiqa dargohlarida salohiyati yildan-yilga ijobiy tomonga o’zgarib oliy malakali mutaxassislar ta’lim faoliyat ko’rsatmoqdalar. Har to’rt yilda viloyat va respublika miqyosida o’tkazilgan tanlovlarda yosh istedodli sozandalar tanlov g’oliblari bo’lmoqda. Har yili xurmatli Prizedentimiz I.Karimovning tashabbuslari bilan hayrli o’tkaziladi. ”O’zbekiston vatanim manim” qo’shiq bayrami ko’rik tanlovida Qashqadaryo musiqa sohasida faoliyat ko’rsatayotgan hamkasblarimiz yakka ijro ansambl jamoasi xor jamoasi ijrolari bilan ishtirok etib faxrli o’rinlarga sazovor bo’lmoqdalar.

Qashqadaryo musiqa ijrochiligi haqida alohida e’tibor berishimiz lozim ko’proq Qashqadaryo hududida mavjud musiqiy asarlarni o’rganish va targ’ib qilish masalalariga alohida e’tibor berish lozim. Qashqadaryo musiqa hayoti musiqiy asarlari hozirgi kuni ko’pgina mamlakatlarda namoyish etilmoqda. 1990 yilgacha cholg’ulardan chang, nay, g’ijjak, doira, do’mbira, rubob, surnay, karnay, nog’ora ijrochiligida qo’llaniladigan bo’lsa keyingi yillarda ud, tanbur, qonun, soz, tor musiqasi cholg’ular ham Qashqadaryo musiqa ijrochiligida qo’llaniladigan bo’lsa keyingi yillarda demak Qashqadaryo musiqa ijrochiligi yildan-yilga boyib kelmoqda.





Chiroqchi chiroqlari va Momogul folklor dastalari



Arg'amchi

Naqorat:

Arg'amchi gilamchi
Arg'amchi gilamchi

Turna desam turumli
Keng dalaga qo'nimli
Turnalar uchsa pastlab
Risqing kelar unumli

Naqorat:



Arg'amchi gilamchi
Arg'amchi gilamchi

Turna o'zi qurumli
Usti qora bo'yni oq
Turna uchsa balandlab
Yil keladi qurimsoq

Naqorat:

Arg'amchi gilamchi
Arg'amchi gilamchi

Turna tillo taozi
Ob-havoga qozi
Turna kelsa yurtingga
Salqin keladi yozi

Musiqa tinglash "Shalola" folklor-etnografik ansambili ijro etgan qo'shiqlardan tinglang.

Aytim ovoz mashqlari

2. "Lola" qoshig'ini to'liq shaklida kuylang.



Musiqa savodi. Tretsiya intervali. Tretsiya "uchinchi" degan ma'noni bildiradi. U uch pog'ona masofada joylashgan ikki tovush nisbatini anglatadi. Bunday nisbatdagi tovushlarni xohlagan notamizdan yuqoriga va pastga qarab tuzishimiz mumkin.

O'zbek xalqining o'z ildizlari qdim-qadim zamonlarga borib tarqaladigan musiqa merosi bizning hozirgi kunlarimizda ham yangramoqda. U o'zining xalq ijodi hamda kuy tuzilishi jihatidan rivojlangan. Ashula va cholg'u asarlari dostonlar va maqom musiqasini birlashtiradi. Qahramonlik hamda qahramonona lirik mazmundagi epik asarlar dostonlar ham muhim o'rin egallaydi. O'zbek cholg'u asboblari hamda musiqa amaliyoti va ijrochiligiga bog'liq bo'lgan cholg'u musiqa janrlari ham g'oyat rang-barangligi va boyligi bilan xarakterlanadi.

Qashqadaryo va Surxondaryo musiqa folklori har qanday xalq ijodi mehnatkashlarining orzu umidi ularning turmushi va ahloqi milliy ozodlik uchun kurashning ifodasi sifatida gavdalanadi. Qashqadaryo-Surxondaryo musiqasining mavzu jihatdan serqirraligi janrlarga boyligi va hayotda tutgan o'rnining xilma-xiligi ham ana shu bilan bog'liq.

Qashqadaryo va Surxondaryo qo'shiq va ashulalari va cholg'u musiqasi janrlari o'z funksiyasi va turmushda tutgan o'rniga muvofiq ikki guruhni tashkil etadi.

Birinchisi – ma'lum vaqt yoki ma'lum muddat sharoitidagina ijro etadigan ashulalar va cholg'u kuylari. Bular: oilaviy marosim qo'shiqlari, mehnat qo'shiqlari hamda allalar har xil tantana tomosha kabi marosimlarda ijro etiladigan cholg'u kuylaridir.



Ikkinchisi – istalgan vaqtda va har qanday sharoitlarda ijro etiladigan ashula-qo'shiq cholg'u kuylari. Ularga: lapar, yalla, ashula, qo'shiq, cholg'u kuylari, chulama va dostonchilik kuylari kiradi.

Har bir guruh o'ziga xos xarakterli belgilarga ega.

O'zbekiston musiqasida mahalliy musiqaiy uslublar

O'zbekiston xalqining musiqaiy merosida asosan, to'rtta mahalliy uslub mavjud bo'lib, ular quyidagicha nomlanadi:

1. Surxondaryo – Qashqadaryo musiqa uslubi.
2. Buxoro – Samarqand musiqa uslubi
3. Xorazm musiqa uslubi
4. Farg'ona – Toshkent musiqa uslubi


O'zbekistonning janubiy viloyatlari Surxondaryo – Qashqadaryo aholisining katta qismi boshqa viloyatlardan farqli o'laroq, o'tmishda, asosan chorvachilik, dehqonchilik bilan shug'ullanib kelishgan edi. Bu viloyatlar musiqa folklorlaridan chorvadorlar mehnati haqidagi ko'chmanchilik hayoti haqidagi qo'shiqlarning xarakteri o'rin egallashi ana shundandir.

Xalq orasida asrlar osha musiqaiy va she'riy ya'ni musiqasiz ovoz vositasida ijro etilib, avloddan-avlodga yetib kelayotgan xalq ijodiyotiga oid asarlar ijrolari hozirgi davrda folklor nomli zamonaviyatama bilan nomlanib ularning ijrochi jamoalari etnografik ansambl nomlari bilan atalib kelinmoqda.

Folklor etnografik ansambllarda ijro etilayotgan asar xalq orasidan yetishib chiqqan yetuk ijrochilar tomonidan ijro etilib kelinayotgan yakka qo'shiq, lapar, aytishuv, alla, yalla, umuman oilaviy, yil davomida bo'ladigan mavsumiy ijro asoslarini doira, nay, qo'shnay, dutor, do'mbira, tambur, qo'biz, chanqobiz, qo'shiq, qayroq jo'rligida milliy liboslar va turli sahna ko'rinishlarida ijro etilib, viloyat, respublika, umuman etnigrafik tanlovlarda ijro etib kelinmoqda.



Bu ijrolar xalq boyligi, an'analar davomiyligi, kelajak avlodlar uchun bebaho durdonalar namunalari hisolanadi. O'zbekiston xalq baxshisi Shomurod Tog'ayev rahbarligidagi etnografik ansambl 1988 yilda Qarshi shahrida Momaqul Ahedova tomonidan tashkil qilingan. Hamda Inoyat Qodiriy rahbarligida tashkil qilingan etnografik ansamblar 2006 yilda Qarshi shahrining 2700 yilligi munosabati bilan o'tkazilgan anjumanlarda musiqiy ijrolar bilan ishtirok etishdi. Ushbu ansamblarning repertuarlarida – alla, to'y marosimi, omonyor, choynak raqsi, bellari tasnadikina, holayli kabi ijro asarlar mavjud.

Muborakda Fozil Madiyev rahbarligida tashkil etilgan “Zanjir saroy” folklor ansambli 1999 yilda Jaloliddin Manguberdi tavalludining 800 yilligi Qarhi shahrining 2700 yilligi 2001



yilda Xorazm, Urganch shaharlarida ishtirok etilgan. Uning repertuarida – sog’inch, qizg’ini, yorim mani, sovchi, Qashqadaryo eli kabi ijro asarlar mavjud.

Shu bilan birga Qashqadaryoning Qarshi shahrida “Arab qullari”, Shahrisabzda “Besh qarsak”, Kitobda “SAboqul”, Qamashida “Mahallada duv-duv gap”, Kosonda “Farzona bo’ston”, Mirishkorda “Al arabiya”, Chiroqchida “Chiroqchi chiroqlari”, Qarshida “Momagul”, G’uzorda “Gulrux”, Nishonda “Nurafshon”, Kosonda “Omonyor” va shunga o’xshash folklor ansambllari faoliyat ko’rsatadi.



III.3. Baxshichilik ijro yo'llari



Qadimgi ayyomdan inoyat turmush tarzining madaniy va madaniy'naviy hayotiga tegishli barcha sohalar o'ziga xos asnoda yaratilib, rivojlanib, turli xil jarayonlarni guvohi bo'lib avloddan-avlodga o'tib kelmoqda. Ayniqsa madaniy'naviy hayotda mavjud madaniy'naviyat, san'at, musiqa, she'riyat xalq og'zaki ijodi inson tomonidan yaratiladi va insonga ruhiy ozuqa baxsh etadi. Xususan xalq musiqa ijrochiligi xalq og'zaki ijodiyoti ya'ni folklor hamda baxshilar ijro yo'llari, bu musiqaiy asarlar ijrolari shunday yuqori darajadagi istedod mahorati yodda saqlash, o'z ijro mahoratini yodda saqlash, o'z ijro mahoratini namoyish etish va hakoza talablar kiradi.

Folklor tushunchasi ya'ni bu atama inglischda folk – xalq lore – donishmandlik, xalq donishmandligi ma'nosini anglatib bu tarmen birinchi marotaba 1846 yilda Vilyan Tons tomonidan atalib keyin xalqaro termenga aylandi. Folklorlar haqidagi bu fan “folklorshunoslik” fani bo'lib folklorning paydo bo'lishi, tarixiga doir madaniy'lumotlarni to'playdi. 1935 yillarda boshlanib aniqrog'I 1939-1941 yillarda Xodi Zarif oliy o'quv yurtlari uchun “O'zbekiston'zbek folklori” kitobini yozadi.

Baxshi – xalq og'zaki ijodida paydo bo'lgan doston, dostonchilik paydo bo'lishi baxshilalar nomi bilan bog'liqdir. Professor Xodi Zarifovning yozishicha baxshi so'zi mug'ulcha yoki bo'riyotcha baxsha, bag'sha so'zlaridan olingan bo'lib ustod, ma'rifatchi degan ma'nolarni anglatadi. Ya'ni dostonlarni yodlovchi kuylovchi yodda saqlovchi biz dostonchilik, baxshichilik haqida fikr yuritganimizda O'rta Osiyo hududidagi O'zbekiston, Tojigiston, Qozog'iston, Qirg'iziston, turkmaniston hududida baxshichilik ijro yo'llari mavjud bo'lib, bu turdagi ijro yo'llari asosan dutor do'mbira, tor, qubiz musiqa cholg'ulari asosida ijro etiladi.

O'zbekiston hududidagi baxshichilik ijrolari uoq yillardavomida tor doirada o'rganilgan bo'lsa, keyingi yillarda baxshilik ijro yo'llari, ularning ijrochilik maktablarini keng doirada ilmiy asosda e'tibor bermoqda. Bu borada 1920 yillarda o'zbek folklorshunoslik olimlaridan bu turdagi ijro yo'llarini yig'ish va tadqiqot ishlarini olib borgan. Xodi Zarifov Muzayna Aloviya va boshqalar o'zbek dostonchiligining buyuk namoyondalari Ergash Jumanbulbul, Fozil Yo'ldosh o'g'li Po'lkan shoir, Islom shoir va boshqalardan ijro namunalarini to'plashga harakat qilib ijodiy izlanishlar olib borildi.

Keyingi yillarda ijrolarini yig'ilishida Toshkentdagi Alisher Navoiy nomidagi adabiyot institutini sharqshunoslik xodimlari san'atshunoslik institutida professor Fayzulla Karamatov o'zbek va tojik baxshilarining ijrolarini to'plashgan. Madaniyat institutning professori Malik Murodovni Qashqadaryo va Surxondaryo baxshichilik ijrolarini to'plab nashr ettirishdagi sayi harakatlarini tavsiya sazovordir.




Albatta Qashqadaryo va Surxondaryo baxshichilik ijrolari ham o'ziga xos ijro yo'llari hisoblanadi. Ayniqsa Qashqadaryo baxshichilik ijro yo'llarini to'plash, o'rganish, targ'ib qilishda atoqli folklorshunoslik olim Malik Murodovning hizmatlari bebahodir.


Malik Murodovning Qashqadaryo baxshichilik ijodini o'rganishga sabab bo'ldi. Qarshi davlat dorilfunining o'qituvchisi Abdimo'min Qahorov Toshkenga borib Qashqadaryo baxshichilik haqida ba'zi olimlar bilan suxbat qilgan. Shundan so'ng malik murodov bu ishga kirishib universitet dotsenti Abduolim Ergashev bilan birgalikda Qashqadaryolik mashxur xalq baxshisi Qodir baxshidan "Zaydinoy", "Zarxun Maston", "G'uppanoy" nomli "Go'ro'g'li" silsilasiga oid fanga nomalum yangi ijro yo'liga xos dostonlarning do'mbira jo'rligidagi ijrolarini yozib olindi. Undan tashqari "Go'ro'g'lining o'limi" dostoning yetti ijro yo'li "Go'ro'g'lining tug'ilishi"ni besh ijro yo'li, "Nurali" ijro yo'lining besh ijro yo'li hamda "Gulsanobar", "Avazxon", "Shohdarxon", "Avaz va Ahmad" dostonlari magnit tasmaga yozib olindi hamda "Go'ro'g'lining tug'ilishi", "Shohdarxon", "Gulixiramon", "Qora Quzim oyim", "Xilomon", "Zexarxon" dostonlkarining ijrolari nashrga tayyorlandi.



Qashqadaryo, dehqonobod, Yakkabog', Qamashi, Chiroqchi, G'uzor, Nishon va boshqa joylarda o'ziga xos baxshichilik ijro yo'llari bo'lib ko'pgina xalq dostonlari termenlari do'mbira jo'rligida ijro etiladi. Bu sohada mashaqqatli mehnat orqali ijro etilayotgan xalq baxshilaridan Abdulla shoir, Nurali o'g'li Umar baxshi, ayniqsa Qodir baxshi Rahimovning shogirdlari Qaxxor Abdumurodov, Bahodir Bahrom baxshilarning ijrolari ya'ni Qashqadaryo baxshichiligining ijro yo'llari viloyat respublika umumjahon miqyosidagi musiqiy anjumanlarda namoyish etmoqda.





Bo`ron baxshi





III.4. Bastakorlik ijodi

Hozirgi kundagi Qashqadaryo musiqaiy hayoti albatta o'ziga xos, zamon talabiga mos holda rivojlanmoqda. Chunki teatrda oliy va o'rta musiqa maskanlarida yetuk malakali Toshkent konservatoriyasini madaniyat instituti teatr rassomchilik institutini tamomlagan sozanda hamda bastakor musiqashunos aktiyor rejissorlik faoliyat ko'rsatib kelmoqda. Ayniqsa musiqa ijrochiligida faoliyat ko'rsatayotgan mutaxassislarning ba'zilarini bastakorlik sohasida ham ijod etib cholg'u va ashula yo'li ijrolariga xos musiqiy asarlar yaratilmoqda.

O'zbek musiqa ijrochiligida "Zunaylixon va Abdurahmon baxshi" nomli asarlar ijrochiligida qo'llaniladi. Bu musiqiy asarlar 1875 yilda tug'ilgan Abdurahmonbek nomli shahrisabzlik bastakorlar tomonidan bastalangan. Undan tashqari Rahmatjon Tursunov, Sulton Anvarovlar yetuk bastakorlar hisoblanadi. Undan tashqari Islom Rajabov, Murodilla Abdurahimov, Bahodir Maksimov, Abdujabbor Rahmonqulov va boshqalar ham bastakorlik ijodi bilan shug'ullanib ovoz uchun 2-3-4-5-6-7 kishilik ovozlar uchun ansambl arkestr xor jamoalari uchun musiqa bastalab yangi-yangi asarlar bastalanmoqda. Masalan: Bastakor Rahmatjon Tursunovning Fuzuliy she'riga bastalangan "G'amzasin sevdin ko'ngul" va "Janonsan" asari Sulton Anvarovning "Men yoshlikman", "Baxt navosi", "Bilmadim", "Kelmading", "Mezmon keldi", "Visol", "Bahorim", "Umrimiz", "Derazamni chertmagin", "Firoqlarga", "Malikam", "Tong", "Qizgina", "Alvido", "Muxabbat", "Gul", "Izhor" nomli ashulalari B/Maksimovning Amir Xudoyberdi she'riga bastalangan _____ asari, M.Abdukarimovning Poyon Ravshanov she'riga bastalangan "Marhabo bahor", A.Oripov she'riga bastalangan "O'zbekistonim senga", A.Rahmonqulovning "Istiqlolni kuylayman" kitobidan bastalangan musiqalari Ravshan Ziyodov bastalagan "Xalqim asrar farzandlarini", "Oila", "O'zbekiston'zbeгим", "Berdiyoring", "Sen emassan", "Siz tufayli yor", "Nasaf" nomli asarlar Qashqadaryo bastakorlik ijodidan namunalar hisoblanadi.

Bolalar, baxshilar dostonlarining ijrochilari ekanligini o'tgan darsdagi mavzudan bilib oldingiz. Bunga qo'shimcha qilib shuni aytish mumkinki baxshilar doston ijro etayotganda maxsus "bo'g'i q ovoz" bilan kuylaydilar hamda do'mbira soziga o'zlariga jo'rnavozlik qiladilar.

Bo'g'i q ovozda kuylash esa dostonlarini ijro etish uchun asos bo'lib, bunday kuylash uchun baxshilarda maxsus ijroviy malakalar hosil etiladi. Baxshilarni tarbiyalab yetishishida "ustoz-shogird" maktabi qo'llaniladi. Bu shunday maktabki, unda baxshi bo'lish istagidagi talabgor ustoz-baxshiga o'quvchi-shogired tushadi. Shundan so'ng u ko'p yillar (5-10 yil) davomida ovozda kuylash, do'mbira chertish kabi ijrochilik mahoratlari bilan birga yana "Alpomish", "Avazxon", "Go'ro'g'li" kabi dostonlarni yod oladi, ularni aytib berish uslublarini o'rganadi.

Musiqa tinglash: "Alpomish" dostonidan namunalar tinglang.



”Alpomish” dostonlarning qahramonlik turiga mansub bo’lib, unda xalqimizning mard...
vatanparvarlik, qahramonlik haqidagi tasavur va tuyg’ulari o’zining yorqin ifodasini topgan.
Dostonning bosh qahramoni – Qo’ng’irot urug’ining bahodiri - Hakimbek (Alpomish)dir.
Dostonda uning siymosi barcha yovuzliklarni yomonliklarni dushmani sifatida gavdalanadi.



ҒАМЗАСИҢ СЕВДИҢГ, КҮНГИЛ...

Фузулий газали

Moderato




О- та- шин о- ҳим-ла ай- лар- сан мөн-га так-

ли-фи боғ,
боғ-бон, гул
бар-ги хан- до-

нинг хе- рах- мас- му сен- га?!
Эй ка- мон аб-



ру, ра- хи- ба бер-ма гам-занг- дин на- сиб,



уқ с- тар- сан то- ша, пай- ко- нинг ке- рак- мас- му сен- га?

Ён- ду-руб жо- ним, жаҳон суз эт- ма бар- қи

о- ҳи- ми, ос- мон, хур- ши- ди рах- шо-




нинг ке-рак- мас- му сен-га? Ту- та-лим ким,

ашк се- ло- би-на йўқ- дир эъ-ти- бор,

эй Фу- зу- лий, чаш-ми гир- ё- нинг ке- рак- мас-

му сен-га? Ғам-за-син сев- динг, кўн-гил, жо-



Ғамзасин севдинг кўнгли, жонинг керакмасму сенга?
Тега урдинг, жисми уренинг керакмасму сенга?

Оташин оҳим-ла айларсан менга таклифи бор,
Борбон, гул барги хандонинг керакмасму сенга?


Эй камон абру, рақиба берма ғамзангдин насиб,
Ўқ отарсан тоша, пайконинг керакмасму сенга?



Ёндуруб жоним, жаҳон сўз этма барқи оҳими,
Осмон, хуршиди рахшонинг керакмасму сенга?

Surxondaryo – Qashqadaryo viloyatlarining aholini qadim zamondan buyo chorvachilik bilan shug'ullanishib va buning natijasida xalq og'zaki ijodida chorvachilikka oid "So'g'im qo'shiqlari" yuzaga kelganligi o'tgan darslarda aytib o'tilgan edi. Cho'ponlar ijodi ham shu mehnat jarayoniga aloqadordir lekin unga sog'im qo'shiqlaridan farqli o'laroq cholg'u kuylari ko'proq o'rin egllaydi. Bu kuylar asosan sibziq va do'mbira sozlarida ijro etiladi.

Shuni alohida aytish kerakki, do'mbira sozi nafaqat baxshilar balki cho'ponlar tomonidan ham sevib ijro etiladi. Buning isboti shuki, cho'ponlar ijodida bu cholg'u uchun ko'plab "Do'mbira kuy" lar yuzaga kelgandir. Shuningdek cho'ponlar mehnatiga ko'mak beruvchi maxsus kuylar ham ijod etilgan. Masalan: qo'ylarni haydash lozim bo'lganida shu vazifani bajarishga oid to'qilgan shartli darakchi kuy chalinadi. Cho'ponlar bu kuylarini "Qo'ylarni sudrash" deb ataydilar. Chunki qo'ylar bu kuyini eshitgach oldinga yura boshlaydilar. Cho'ponlar ijodini yaxshi egallagan do'mbirachilarni xalq sevadi. Shodi ota Alimardonov, Musulmonqul Oltiyev, Eson Tilovov, Jo'ra Donyorov kabi do'mbirachilar shular jumlasidandir.

Musiqa tinglash: "Cho'ponni chaqirish" do'mbira kuyini tinglang. Mazkur kuy uzoq dala-o'tloqlarda yurgan cho'ponlarni chaqirish uchun shartli axborot sadosi bo'lib xizmat qiladi.





“Shaftoliga savolim” qo’shig’ini to’liq shaklda kuylang.

Musiqa savodi. Tretsiya va kvarta intervallari haqidagi bilimlaringizni mustahkamlang. Quyidagi berilgan tovushlarning har biridan yuqoriga va pastga qarab tretsita va kvarta intervallarini tuzing hamda ularni nota belgilari bilan yozib chiqing.

”Shaftoliga savolim” qo’shig’ining 1-bandini kuylashga o’rganing.

Shaftoliga savolim



N.Norxo’jayev musiqasi

P.Mo’min sh’eri

1. Shaftolim oh shaftolim
Qizil-u oq shaftolim
Hamma menday sevadi,
Pishganda maza bolim.
Shaftolim...

Asta aytib beraqol,
Seni topgay qay olim?
Indamaydi shaftolim,
Qiyin ekan savolim.
Shaftolim...

Kvarta intervali o’zbek xalq qo’shiq va kuylarini juda keng qo’llaniladi. Shuningdek, “O’zbekiston davlat madhiyasi”da ham kvarta intervali qo’llanilgan.



XULOSA

Biz Qashqadaryo musiqa ijrochiligi haqida fikr yuritdik. Hozirgi kunda ko'pgina soha mutaxasislari ya'ni madaniyat san'at sohasida faoliyat ko'rsatayotgan mutaxassislarning ham musiqa ijroligini rivojlanishiga o'z xissalarini qo'shgan. Ularning ijodiy faoliyatlari ko'proq yoritilishi maqsadga muvofiqdir.

Qashqadaryoda faoliyat ko'rsatayotgan xalq ustalarida usta Abdulla Qodiriy, usta Atham, usta Toshpo'lat, usta Ishoq va boshqalarning musiqa cholg'ulari tayyorlash borasidagi mashaqatli mehnatlari alohida yoritib borilishi shart.

Ma'lumki, musiqa ijrochiligi rivojida shoir va shoiralarning yozuvchilarning o'ziga xos o'rni bo'lib, ular yozgan sherlarga spekyakllarga musiqalar bastalangan.



Albatta Qashqadaryo xalqi Abdulla Oripov, Normurod Narzullayev, Jumaniyoz Jabborov, Samar Nurov, Amir Xudoyberdi, Ismoil To'xtameshov, Sharofat Ashurova, Mamoxol Elmurodovalar sherlariga musiqalar bastalangan.

Hozirgi kunda musiqa ijrochiligida 90-tadan ortiq xalq va xizmat ko'rsatgan artistlar Toshkentda va Qashqadaryoda faoliyat ko'rsatmoqda. Qashqadaryo musiqa ijrochiligini yanada boyitish yangi-yangi musiqiy asarlarni bastalash orqali Qashqadaryo ham Xorazim, Buxoro, Samarqand, Farg'ona vodiysiga o'xshash o'zining musiqiy ijrolariga erishishi uchun san'at va madaniyat sohalaridagi mutahassislar o'zaro ijodiy faoliyatini hamkorlikda olib borishlarini taqazo etadi.

Qashqadaryo vohasidan yechilib chiqqan san'atkorlar juda ham ko'p ular milliy musiqamizda o'z xissalarini qo'shganlar. Qashqadaryoda ko'plab O'zbekiston xalq artistlari, xalq xofizlari, san'at arboblari yetishib chiqqan. Ulardan misol keltiradigan bo'lsak.

1. Farog'at Rahmatova.
2. Muhtaram Nosirova.
3. Husan Amirqulov.
4. Maryam Sattorova.
5. Zamira Suyunova.
6. Ikroma Boltayeva.
7. Omon Beganjiyev.
8. Hayet Mustafaqulov.

O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist



1. Nasiba Sattorova.
2. O'ktam Ahmedov.
3. Muharram Fayzullayeva.
4. Lola Xoliqova.
5. Oygul Xolilova.
6. Gulbohor Sulaymonova.
7. Bahriddin Rahmatov.
8. Bekach Beganjiyeva.
9. Muzaffar Toraqulov.
10. Muhiddin Majidov.
11. Aliqul Tulayev.
12. Haqberdi Amirqulov.
13. Odiljon Ismoilov.
14. Zebo Tursonova.
15. Turg'n Beknazarov.
16. Tojiddin Murodov.

O'zbekiston xalq xofizlari.

1. O'lmas Saidjonov.
2. Beknazar Do'smurodov.

O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arboblari:

1. Ishoq To'rayev.
2. Sadriddin Salimov.
3. Rahimjon Komiljonov.

O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi.



Elmurod Boymurodov, Gulchehra Ahmedova.

O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan fan arbobi, professor Muhsin Qodirov.

Kompazetorlar: O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arboblari professor Rahmatjon Tursunov, professor Murodulla Abdukarimov, dotsent Abdujabbor Rahmatqulov.

Yetak sozanda va aktiyorlar:

Majid Mamatov, Bayramali Omonqulov, Ahmadjon Mamadaliyev, Hazratqul Amirqulov, Mamatqul Maratov, Po'lat Hamidov, Yoqub Rajabov, Egamberdi To'rayev, Sabhat Jalilova, Sharofat Ashurova, Ashurali Xoliqov, Arislon Sultonov, Komuna Qiyomuva, Egamberdi Hojiyev, Salim Sayimov, Salohiddin Lutfullayev va O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan Artest Po'lat Mustafayev, Dilfuza Rahimova, Bohodir Niyozov, To'ychi va Akmal Ishoqov, Adham Soliyev, Umirzoq Quvvatov, Sharofiddin Murodov, Azamat Sattorof, Usmon Berotiyev.



O'zbekiston xalq ustasi Bekmurod Jo'rayevlar o'zlarining san'ati bilan o'zbek musiqa ijrochiligiga katta hissalarini qo'shib kelmoqdalar. Bu san'atkorlarsiz Qashqadaryo musiqa ijrochiligini va Qashqadaryo musiqa maktabini tasavvur qilib bo'lmaydi.

1. Qashqadaryo vohasi qadimiy tarixga ega bo'lib, qadimiy ayyomdan Qashqadaryo hududida Nasaf, Kesh, Shahrisabz nomi bilan atalib, bu shaharlarda o'ziga xos musiqa ijrochiligi ham rivojlanib kelgan. Ma'lumki Qashqadaryodan adabiyot sohasida xizmat ko'rsatgan Saida Nasafiy shu bilan birga hind musiqa va adabiyot rivojining asoschisi Amir Xusrav Dehlaviyning ota-bobolarini kelib chiqishi Kesh shahridan chiqqanligi haqida ma'lumot bo'lib Qashqadaryo sohasining musiqa rivoji necha asrlarga borib, taqalishidan ma'lumot beradi. Qashqadaryo vohasi qadimiy shaharlar Buxoro va Samarqand shaharlariga yaqin joylashgani un bu shaharlarning musiqa ijrochiligi Qashqadaryo musiqa madaniyati rivojiga ijobiy ta'sir ko'rsatganligidan darak beradi.

2. Qashqadaryo viloyati musiqa ijrochiligini 1920-yildan 30-yillargacha bo'lgan davrini oladigan bo'lsak, hamda 1960-yildan to hozirgi kungacha xususan mustaqillik davrida Qashqadaryo musiqasi yuqori pog'onalariga ko'tarilib yetuk-yetik shoir, musavverlar kompazetor, musiqa shunoslar, xonandalar, sozandalari yetishib chiqib, Qashqadaryo musiqa ijrochiligi ancha yuqori darajaga ko'tarilib kelmoqda.


3. Qashqadaryoda Mulla Tuychi Toshmuhammedov nomidagi musiqali drammlar sahnalashtirilib nomoish etilmoqda.

Albatta bu teatrlarda ham yetuk sozanda va xonanda aktiyor va rejissorlar faoliyat ko'rsatmoqda.

4. Hozirgi kunda Qashqadaryo Q D U dagi "Musiqiy ta'lim kafidraasi" San'at va Madaniyat kollejlari musiqa maktablarida musiqiy ta'lim darslarida chog'u ijrochiligi maqom ijrochiligi (kabi mutaxassislar) musiqa shunoslar va bastakorlar ta'lim olib Qashqadaryo musiqai ijrochiligi yuqori pog'onalariga ko'tarilib ular orasidan cholg'u ijrochiligi maqom ijrochiligi "kelajak ovozi" "Niho!" mukofati sovrindorlari yetishib chiqib, bu musiqa dargohlarida uzoq yillardan buyuk musiqa sohasining ham amaliy ham nazariy fanlardan mashg'ulot olib boradigan ilmiy darajali fan nomzodlari ilmiy unvonli dotsent va professor yetishib chiqmoqda

5. Qashqadaryodagi barcha umum ta'lim maktablarda ham musiqa mashg'ulotlari olib borilib, musiqa savodi musiqaning cholg'u va qo'shiq ijrolari vokal har va amambil jamoalariga tegishli musiqiy mashg'ulotlarning olib borilishida ham yetuk ustozlar faoliyat ko'rsatib kelmoqda.

6. Qashqadaryo o'zining baxshichili ijro san'ati bilan ajralib turadi. Qashqadaryoning Qamashi, Chiroqchi, Dehqonobod, G'uzor mahalgohlarida ko'pgina ajoyib xalq baxshilari faoliyat ko'rsatib, Boysun, Qarshi, Shahrisabz, Koson, Muborak va boshqa joylarda faoliyat



ko'rsatgan folklor jamoalari qadimdam Qashqadaryo viloyatida xalq orasida ijro etilgan kelinayotgan qo'shiqlarni to'plab folklor jamoalari ijrolarida viloyat, Respublika O'rta Osiyo va umum jahon miqyosidagi musiqiy anjumanlarda qatnashishlari ham bizning vohamizda musiqiy an'analar necha yillar davomida saqlanib kelayotganidan darak beradi.

Biz mazkur bitiruv bitiruv malakaviy ishimizda Qashqadaryo va Surhandaryoning avalgi va hozirgi kundagi musiqa madaniyat sohalariga tegishli malumotlarni tahlil qilar ekanmiz yildan -yilga mazkur sohalarni keng miqyosida borayotganini guvohi bo'lamiz. Qashqadaryo va Surxandaryodagi an'anaviy va zamonaviy musiqa ijrochiligini O'zbekiston musiqa ijrochiligini taraqqiyotiga qo'shayotgan xissaxini guvohi bo'lamiz. Ayniqsa Mustaqillik yillarida musiqa ilmining amaliy va nazariy rivojida Qashqadaryo va Surxandaryo musiqa ijrochiligining o'ziga xos hozirgi kunlari musiqiy hayotida ilmiy izlanish asosida tahlil etishga harakat qildik.



Biz o'z tadqiqot ishimizda maktabda Qashqadaryo va Surxondaryo musiqa ijrochiligini o'rganishning mohiyati va darslarda qo'llanilishini aniq reja asosida yoritib berishga harakat qildik va quyidagi xulosaga keldik.

1. Maktabda Qashqadaryo va Surxondaryo musiqa ijrochiligini o'rganish tizimli ravishda amalga oshirishimiz o'quvchilarning bu yo'lni puxta o'zlashtirib olishlariga ijobiy natijalar beradi.

2. Yangi dasturda musiqa ta'limining mazmuni musiqa o'qituvchisidan Qashqadaryo va Surxondaryo musiqa ijrochiligi yo'lini chuqur o'zlashtirgan bo'lishi kerakligini talab qiladi. Shu bois tadqiqot ishimizda bu yo'lni o'rganish har bir sinfda emas balki yuqori sinflarda ko'proq qo'llanilishi tavsiya etiladi.



3. Maktabda musiqa darslarida Qashqadaryo va Surxondaryo musiqa ijrochiligini o'rganish va DTS yangi avlodni tarbiyalashda ularning barkamol bo'lib yetishishlarida milliy musiqa merosiga vorislik qila oladigan umumbashariy inson o'ziga xos takrorlanmas zamin yaratadi.

Milliy musiqa meroslarimizdan to'laqonli foydalanish, yangi avlodni tarbiyalashda ularning barkamol bo'lib yetishishlarida o'ziga xos takrorlanmas manba bo'lib xizmat qiladi.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. "Naqshab" Qarshi jaxon sivilazatsiyasi tizimida. 2-jild. Qarshi 2005 yil.
2. Rajabov I. "Maqomlar masalasiga doir" Toshkent 1963.
3. Ilm, fan va taraqqiyot. Nasaf 2007.
4. Nafas Shodmonov. "Temuriylar davrida musiqashunoslik". Toshkent 2000
5. Vizgo T.S. "Muzikalniye instrumentm Sredney Azii" Moskva 1980
6. Belyayev V.M. "Muzikalniye instrumenti Uzbekistana". Moskva 1953.
7. Abdurauf Fitrat. O‘zbek klassik musiqasi va uning tarixi Toshkent 1993.
8. Ahmad Odilov, Anvar Lutfullayev. "Chang" Toshkent 2002.
9. Rahmatjon Tursunov. G‘amzasin sevding ko‘ngul. T.:1989 y.
10. Rahmatjon Tursunov. Qalbmida o‘zing borsan. T.:2001.
11. B.Sarimsoqov. O‘zbek xalq poetik ijodi. T.:1990.
12. Murodulla Abdukarimov. Cholg‘ushunoslik. Qarshi. "Nasaf", 2006.
13. Rahmatjon Tursunov. Ashula va raqs ansambli bilan ishlash uslubiyoti. T.:2002.



БУЛБУЛ

А. Орипов шеъри


Andante

Piano introduction musical notation for the first system, featuring a treble and bass clef with a key signature of one sharp (F#) and a 4/4 time signature. The melody is in the treble clef, and the accompaniment is in the bass clef.

Second system of musical notation, including a vocal line and piano accompaniment. The vocal line is in the treble clef, and the piano accompaniment is in the bass clef. The lyrics are: "Сен бул- бул- сан, бул-бул- лар- ни маст қи- ла- қол,"

Third system of musical notation, including a vocal line and piano accompaniment. The vocal line is in the treble clef, and the piano accompaniment is in the bass clef. The lyrics are: "бул- бу- лим, ме- нинг у- чун сай- ра- шинг-ия"



Fourth system of musical notation, including a vocal line and piano accompaniment. The vocal line is in the treble clef, and the piano accompaniment is in the bass clef. The lyrics are: "бас қи- ла- қол, бул-бу- лим. Шо- му са- ҳар"



ти- ним бил- май шарх, ай- ла- динг ди- линг- ни,

қа- ши, айт- чи, бул- бул- ги- нам, ким ту- шув- ди ти- линг- ни?

Би- ров се- ни но- ла де- ди, би- ров де- ди ох- фи- гон,





бул-бул ти-лин бул- бул би-лар, мөн бил-мас-ман, бул-бул-жон!

Анг-лар-ми деб бе- ху- да- га роз сүй-ла-ма,

ху- шим, хай, сен-бул-бул-сан, бул-бул- ги- нам,

се- ни бул- бул ту- шун- га! Сен - бул-бул-сан,



ritenuto



бул-бул- ги- нам, се- ни бул- бул ту- шун- гай!

Сен – булбулсан, булбулларни маст қилақол, булбулим,
Менинг учун сайрашингни бас қилақол, булбулим.

Шому саҳар тиним билмай шарҳ айладинг дилингни,
Қани, айт-чи, булбулгинам, ким тушунди тилингни?

Биров сени нола деди, биров деди оҳ-фиғон,
Булбул тилин булбул билар, мен билмасман, булбулжон!

Англарми деб беҳудага роз сўйлама, қушим, ҳай,
Сен – булбулсан, булбулгинам, сени булбул тушунгай!



ЖОНОНАСАН

Вазмин, куйчан

Усмон Жонгитов шеъри

Дил - ба - рим гул - чеҳ - ра - лар ич - ра ў - зинг жо - но - на сан

Мун - ча ҳам о - шиф - та ҳол мун - ча ҳам

жа - но - на сан сўз - да йин ҳус - нинг се - ни

не тил би - лан тас - вир э - тай кун - ду - зи



оф - тоб жа - мол оқ - шом - да ой дек ё - на - сан

Не у - чун тенг эл - ма - йин ос - мон - да - ги

сой - ё - ра - ги Ас - ли - да оф - тоб - га мён

ё ой - га сен ду - го - на - сан Тер - му - либ

вас - линг - ни деб қо - шинг - да мён пар - во - қа - ман



сен - чи эй пар-во-си йўқ ким қо-ши -да пар-во-на -сан

О - - - - -

Мен-ку ё иш -қинг ў -ти


зан-жи-ри -га бўл-дим а -сир Сен-чи эй

бе - му -рув -ват то-кай-га -ча бе - го -на -сан

Дил-ба-рим гул-чеҳ-ра-лар ич-ра ў -зинг я - го -на -сан

Мун - ча -ҳам о - шиф -та ҳол мун - ча ҳам

жа - но - на - сан мун - ча ҳам жа - но - на - сан



Дилбарим гулчеҳралар ичра ўзинг ягонасан,
Мунча ҳам ошуфта ҳол, мунча ҳам жанонасан.
Сўзлайин ҳуснинг сенинг не тил билан тасвир этай,
Кундузи офтоб жамол, оқшомда ойдек ёнасан:
Не учун тенг этмайин осмондаги сайёрага,
Аслида офтобга мен, ё ойда сен дугонасан.
Термулиб васлингни деб, қошингда мен парвонаман,
Сенчи эй парвоси йўқ ким қошида парвонасан.
Менку ё ишқинг ўти занжирига бўлдим асир,
Сенчи эй бемурувват тоқайгача бегонасан.



Qarshi davlat universiteti dotsenti,
«Musiqa» kafedrasining
mudiri Sami Aziz o'g'li.



Shahrisabz shahridagi «Qori Zokir Sodiqov»
nomidagi Shahrisabz xalq teatrining musiqa
rahbari, rejissori, yetuk sozanda ,maqom
asarlarning bilimdoni, O'zbekistonda Xizmat
ko'rsatgan madaniyat xodimi Elmurod
Boymurodov.



Buyuk sozanda , O'zbekistonda
Xizmat ko'rsatgan madaniyat
xodimi A'zam Rajabov.



O'zbekistonda Xizmat ko'rsatgan
madaniyatxodimi Rizqi Rajabov.



Rustam Rajabov.



Hofiz xonanda Fayzullo Islomov.



Toshkent Madaniyat institutining professori Rustam Negmatov,
QDU musiqa kafedrasida.



O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist Tojiddin Murodov.



Xushovoz xonanda Po'latjon Hamidov.



Xonanda, bastakor Hazratqul Amirqulov.



O'zbekiston Xalq artistkalari - Zamira Suyunova va Maryam Sattorova.



O'zbekiston Xalq hofizi Beknazar
Do'stmurodov.

O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan
artistka Nasiba Sattorova.



Xofiz honanda Arslon Sultonov.



Xofiz honanda Azamat Saripov.

Qarshi Davlat san'at kolleji. Tanbur sinfi.



Eski Machit teatri. Teatrning bosh rejissyori O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi Is'hoq To'rayev.



Buyuk xushovoz hofiz xonandalar
O'zbekistonda Xizmat ko'rsatgan
artistlar Odiljon Ismoilov va Oygul Xalilova.

